

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA FAKULTETI

BOSHLANG'ICH TA'LIM METODIKASI KAFEDRASI

SAFAROVA NASIBA BERDIBEKOVNANING

5111700 – BOSHLANG'ICH TA'LIM VA SPORT TARBIYAVIY ISH YO'NALISHI BO'YICHA
BAKALAVR DARAJASINI OLISH UCHUN « Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tejamkorlik
munosabatlarga tayyorlash yo'llari. » MAVZUSIDA YOZGAN

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

GulDU «Boshlang'ich ta'lism metodikasi»
kafedrasining 31.05.2020 yildagi
10-sonli majlis qarori bilan himoyaga tavsiya etildi.
Kafedra mudiri: prof. B. Raximov

Rahbar: N.MISIROVA

Bajaruvchi: N. SAFAROVA

GULISTON – 2020

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I bob. BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIGA IQTISODIY TA'LIM BERISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	11
1.1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining iqtisodiy bilimdonligini rivojlantirish dolzARB pedagogik muammo sifatida.....	11
1.2. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga iqtisodiy ta'lIM-tarbiya berish sohasidagi tarixiy tajribalar.....	17
II bob. BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIGA IQTISODIY TA'LIM VA TARBIYA BERISHNING MAZMUNI VA METODIKASI.....	39
2.1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining iqtisodga (tejamkorlikka) oid bilim, tushunchalarini rivojlantirish jarayonining mazmuni, usul va metodlar.	
2.2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining iqtisodiy rivojlantirishning mavjud holati.....	43
UMUMIY XULOSA.....	55
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	57

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi: Yurtimizning ertangi kunini hal qiluvchi bo’lgan yoshlar tarbiyasi hamma davrlarda ham o’ta muhim dolzarb vazifalardan biri bo’lib kelgan. Yurtimiz kelajagi yosh avlodlar qo’lida ekan, ularni har tomonlama yetuk, insonparvar, jamiyat va tabiat oldida mas’uliyatli shaxslar etib tarbiyalash eng ustuvor maqsadlarimizdan biridir. Rivojlanayotgan O’zbekiston qisqa davr mobaynida xalqimiz va davlatimiz tarixida katta ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy o’zgarishlar yuz bermoqda.

Shu bois mamlakatimizda aynan maktabgacha ta’lim uzlusiz ta’lim tizimining ajralmas bo’lagiga, ta’bir joiz bo’lsa, uning debochasiga aylangan. Shu ma’noda O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 noyabr kuni matbuotda e’lon qilingan “Zamonaviy maktab” larni tashkil etish chora-tadbirlari to’g’risidagi qarori ushbu tizim faoliyatini yangi bosqichga ko’tarish, sohani bugungi kun talablari darajasida modernizatsiya qilishga xizmat qilishi shubhasiz.

Mamlakatimizda barkamol avlodni tarbiyalash uchun, eng avvalo, qulay tashkiliy-huquqiy sharoitlar yaratildi va yaratilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan mazkur sohadagi islohotlar izchil davom ettirilib, umumiy o’rta ta’lim tizimida ilg’or xalqaro tajriba va jamiyatning zamonaviy talablariga muvofiq sifatli ta’lim imkoniyatlarini yaratish, xalq ta’limi muassasalarining moddiy – texnik bazasini mustahkamlash va budgetdan mablag’ ta’minlashning samaradorligini oshirish, yasi uchun qo’shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan tadbirlar amalga oshirish bo’yicha izchil islohatlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga umumiy o’rta ta’lim muassasalarining mavjud holati ularning faoliyatidagi tizimli muammolar, kamchiliklarni tezkor bartaraf etish mexanizmlarini yaratish, qishloq va shahar mакtablarining moddiy-texnik ta’minoti, ta’lim berish sifatidagi tafovutni qisqartirish hamda o’quvchi-yoshlarning ta’lim olishlari uchun teng shart-sharoitlar yaratish zarurligini ko’rsatmoqda.

Darhaqiqat, bugungi kunda jamiyatga har tomonlama rivojlangan, ma’naviy yetuk, iqtisodiy jihatdan bilimdon, teran fikrlaydigan, yuksak iqtisodiy

madaniyatga ega bo'lgan yoshlarni etishtirish muhim ahamiyatga ega. Chunki har bir inson bugungi bozor iqtisodiyoti munosabatlari rivojlanib borayotgan bir sharoitda, uni o'rab turgan iqtisodiy voqelikni anglash, tahlil qilish hamda shunga mos harakatlarni amalga oshirish ko'nikmasiga ega bo'lism lozim. Bu bilim va ko'nikmalar asosan umumiy o'rta ta'lim mакtablarida beriladi. Shuning uchun barkamol avlod ongiga barcha turdag'i o'quv predmetlari tarkibida iqtisodiy bilim, tushunchalarni singdirish ehtiyoji vujudga kelmoqda.

Barkamol avlodning iqtisodga oid bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biriga aylanib qolmoqda. Zero, O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov bu haqda shunday degan edi: «O'quv jarayoniga tadbirkorlik faoliyati, huquq, soliq, sug'urta asoslari haqida bilim beradigan fanlarni dadillik bilan kiritish kerak...»¹deya ta'kidlagan.

Ta'limdagi islohotlar og'ir va mashaqqatli kechishi tabiiydir. Chunki hech qachon eskilik o'z o'rnini yangilikka osonlikcha bo'shatib bermaydi.

Darhaqiqat, iqtisodiy ta'limni ham yoshlikdan, bola endi maktabga kelgan davrdan boshlansagina, ijtimoiy hayotda sifat o'zgarishlari, o'sish sur'atlari bo'lishi mumkin. Mustabid tuzum davrida o'quvchilarga iqtisodiy bilim berishga e'tibor qaratilmagan, iqtisodiy ta'limning ilmiy, moddiy-texnikaviy hamda metodik shart-sharoitlari vujudga keltirilmagan. Hozirgi davrga kelib bu dolzarb vazifaning bajarilishini o'z holicha qoldirib bo'lmaydi, chunki u g'oyat katta iqtisodiy va ma'naviy yo'qotishlarga sabab bo'lishi aniq.

Yoshlarga o'quv muassasalarida iqtisodni fan sifatida o'qitish, ularga katta iqtisod, ya'ni mamlakat iqtisodini o'rgatishdan avval, boshlang'ich sinf o'quvchilariga iqtisod haqida boshlang'ich umumiy tasavvur hosil qilish, bizni o'rab turgan hamda oila a'zolarimiz, yaqinlarimiz doimo duch keladigan iqtisodiy munosabatlar haqida tushunchalar berish maqsadga muvofiqdir. Chunki ba'zan iqtisodiy atamalarni kattalarning o'zlari ham qiyinchilik bilan tushunib oladilar.

¹ 1996-йил якунлари ҳамда 1997-йилдаги килинадиган ишларга бағишиланган мажлисдаги “Ислоҳатлар изчилиги - инсон мафаатлари омили” нутқидан. “Маърифат” газетаси 1997-йил, 1-март.

Shuning uchun iqtisodga oid har bir tushunchani soddalashtirib, barkamol avlodning yoshi, fikrlash doirasiga mos ravishda qayta ishlab chiqish zarur.

Barkamol avlod maktab davridanoq iqtisodiy atamalar, ularning asl mohiyatini bilib olishlari zarur. Chunki iqtisodiy ta'limning bosh maqsadi yoshlarda iqtisodiy bilimdonlik va madaniyatni yuksaltirishdan iborat. Bunda uzluksiz iqtisodiy ta'limni bosqichma-bosqich amalga oshirish yo'nalishlarini ishlab chiqish zaruriyati qo'yilmoqda.

Muammoning o'r ganilganlik darjasи. Bugunga qadar o'quv-biluv jarayonini ijodiy tashkil etish, ta'lim mazmuni doirasida ta'lim-tarbiya elementlarini uyg'unlashtirish, ta'limning kontseptual asoslarini aniqlash, davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish, uni amaliyotga tatbiq etish mexanizmlarini belgilash kabi muammolar yuzasidan R.Safarova, R.Axliddinov, O.Roziqov, B.Adizov, K.Abdullaeva, A.Bekmuradov, H.Nazarova va U.Musaevlar ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borgan bo'lsalarda, barkamol avlodga iqtisodiy ta'lim berish, ularning iqtisodiy bilimdonligini rivojlantirishning didaktik asoslarini yaratish ishlari sustkashlik bilan olib borilmoqda. Buning sababi, bu sohada olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari asosan iqtisodiy ta'lim berishga qaratilgan bo'lib, iqtisodiy ta'lim berishning ayrim metodik qirralarigina tadqiq qilingandir.

Bundan tashqari Rossiyada M.M.Vinokurova, Z.I.Dobrinina, A.Maksimov, L.Usova, A.S.Nisimchuk, B.A.Rayzberg, I.B.Soloveva, A.T.Stepanina, I.A.Sasova, I.I.Nagumanova va E.N.Zemlyanskayalarning o'quvchilarga iqtisodiy ta'lim berish bo'yicha o'quv hamda metodik qo'llanmalari chop etilgan.

O'zbekiston Respublikasida ham mustaqillik sharofati bilan ta'lim muassasalarida o'quvchilarga iqtisodiy ta'lim berish borasida ayrim ishlar amalga oshirilgan. Hozirga qadar ko'pgina o'quv qo'llanma va adabiyotlar turli tillardan tarjima qilinib, keng foydalanilmoqda. Bular jumlasiga V.G.Matveev, U.Parpiev, I.Salomov, E.Sariqov, M.Mamatov, B.Haydarov, A.Suvonqulov, N.To'xliev, K.Xaqberdiev va A.O'lmasovlarning o'quv qo'llanma va metodik tavsiyalari kiradi.

Iqtisodiy ta'lif jarayonida o'quvchi ilk bor kundalik iqtisodga oid atamallarni o'rganadi. O'quvchi iqtisodga oid bilimlarning inson hayoti uchun nihoyatda zarurligi, u barcha sohalarni o'rganish uchun muhimligini his etishi lozim. Ular kundalik muloqotda iqtisodiy atamalardan foydalansalar asta-sekin bu atamalar o'quvchilar ongiga singib boradi.

O'quvchilariga iqtisodiy bilim berishning nazariy-amaliy asoslarini yaratish yo'lida bir qator harakatlar amalga oshirildi. M.Abdalimov, B.Karimov va Sh.Shomansurovlarning uslubiy-amaliy qo'llanmasi, Z.Valieva va Yo.Muhibovlarning o'quv qo'llanmasi hamda B.Karimov, Z.Shokirova, I.Uzoqov, B.Toshmurodov va A.Suvonqulovlarning matbuotda nashr etilgan maqolalari fikrimiz dalilidir.

Bundan tashqari A.Vahobov, O.Gimranova, T.Jo'raev, A.Lyubechanskiy, M.Mirzaahmedov, M.Tojiev, G.Niyozov, N.Mansurova, A.Rashidov, I.Ryabova, S.Turlanova, N.Xamedova, T.Xasanov, A.Haydarov, X.Xudoyqulov, A.G'offorov, D.Yusupxo'jaeva, B.Yunusbaev, I.Hikmatovlarning o'quvchilarga iqtisodiy ta'lif berishga oid mulohazalari matbuotda, S.Musaeva, A.Hasanov va S.Mirzaxo'jaevlarning esa tejamkorlik ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha qo'llannmalari chop etilgan.

Lekin barkamol avlodni tarbiyalashda iqtisodiy bilimini rivojlantirishning didaktik asoslarini yaratish sohasida ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmagan. Shuning uchun ham biz « Maktabgacha yoshdagi bolalarga iqtisodiy ta'lif berishning camarali yo'llari » mavzusini o'z echimini kutayotgan dolzarb muammo sifatida tadqiq etishga kirishdik.

Tadqiqot maqsadi: Boshlang'ich sinf o'quvchilarni tarbiyalashda iqtisodiy bilimlarni o'rganishga yo'naltirilgan texnologiyalarning didaktik asoslarini yaratish va o'quvchilarining iqtisodiy bilimdonligini rivojlantirishga yo'naltirilgan ilmiy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot ob'ekti: Boshlang'ich sinf o'quvchilarga iqtisodiy ta'lif berishning samarali yo'llari

Tadqiqot predmeti: Boshlang'ich sinf o'quvchilarga iqtisodiy ta'lif berish orqali tarbiyalashning mazmuni, shakli va metodlari.

Tadqiqotning vazifalari:

1. Mavzuga oid ilmiy, metodik, pedagogik, psixologik, hamda tarixiy-falsafiy manbalarni o'rganish, tahlil qilish asosida barkamol avlodning iqtisodiy bilimlarini rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo ekanligini aniqlash.

2. Iqtisodiy bilimlar orqali barkamol avlodni tarbiyalashning mavjud holatini o'rganish.

3. Barkamol avlodning iqtisodiy bilimdonligini rivojlantirishga oid tarixiy tajribalarni o'rganish.

4. Iqtisodiy bilimlar orqali barkamol avlodni tarbiyalashning didaktik asoslarini belgilash.

5. Iqtisodiy bilimlar orqali barkamol avlodni tarbiyalashga yo'naltirilgan texnologiyalar va ularning samaradorlik darajasini aniqlash.

Tadqiqotning ilmiy farazi. Agar:

■ O'quvchilarining iqtisodiy bilimdonlik darjasasi ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlar, tarixiy tajribalarni hisobga olgan holda rivojlantirilsa;

■ O'quvchilarining iqtisodiy bilimdonligini rivojlantirish jarayoni aniq mazmundagi moduli texnologiyalar, ta'lif vositalari, metodlari asosida tashkil etilsa;

■ Ularga iqtisodiy tushunchalarni taqdim etishning izchil tizimi yaratilsa;

■ O'quv dasturlari va darsliklarda iqtisodiy bilim, tushgunchalar muayyan izchillikdagi tizim asosida bayon etilsa; o'quvchilarining iqtisodiy bilimdonligi rivojlanadi, jamiyat hayotiga tayyorlik ko'nikmalari tarkib topadi.

Tadqiqot metodlari:

1. Pedagogik tahlil.

2. Qiyosiy tahlil.

3. Anketa, savol-javob, suhbat.

4. Kuzatish.

5. Analitik obzor.

6. Pedagogik eksperiment.

Tadqiqotning metodologik asoslari: O’zbekiston Respublikasining «Ta’lim to’g’risida»gi Qonuni, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoevning ma’ruzalarida bayon qilingan maktab ta’limni isloh qilish, o’quvchilarning iqtisodiy bilimdonligini rivojlantirish, mustaqil fikrlash ko’nikmalarini o’stirishga oid yondashuvlar, qarashlar, ta’lim jarayonini takomillashtirishga yo’naltirilgan O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Xalq ta’limi vazirligining buyruqlari, mavzuga oid ilmiy-pedagogik, psixologik manbalar.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

1. Boshlang’ich sinf o’quvchilarning iqtisodiy bilimlarini rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo ekanligini asoslandi.
2. Boshlang’ich sinf o’quvchilarini iqtisodiy bilimdonligini rivojlantirishning mavjud holati o’rganildi.
3. Boshlang’ich sinf o’quvchilarning iqtisodiy bilimdonligini rivojlantirishga oid tarixiy tajribalar o’rganildi va ulardan foydalanish yuzasidan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.
4. Boshlang’ich sinf o’quvchilarning iqtisodiy bilimdonligini rivojlantirishning didaktik asoslari belgilab berildi.
5. Boshlang’ich sinf o’quvchilarning iqtisodiy bilimdonligini rivojlantirishga yo’naltirilgan modulli texnologiyalar va ularning samaradorlik darajasi aniqlandi.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati: tadqiqot natijasida o’quvchilarning iqtisodiy bilimdonlik darajasini rivojlantirishga yo’naltirilgan dars turlari, integrativ turdagи o’quv materiallarini belgilab berish yo’llari ko’rsatildi. Turli o’quv predmetlari bo’yicha o’quv dasturlari va darsliklarini iqtisodga oid atama va tushunchalar, o’quv materiallari bilan boyitishning didaktik asoslari ishlab chiqildi. Shuningdek, « Umumiy pedagogika » kursi boshlang’ich sinf o’quvchilarining iqtisodiy bilimdonligini texnologiyalar asosida rivojlantirishga yo’naltirilgan nazariy yondashuvlar, bu sohadagi tarixiy tajribalardan foydalanishga oid ilmiy-metodik tavsiyalar bilan boyitildi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati: tadqiqot natijasida aniqlangan ilmiy yondashuvlar, ishlab chiqilgan tavsiyalardan pedagogika nazariyasi kursini boyitish, turli o'quv predmetlari bo'yicha dastur va darsliklarini takomillashtirish hamda o'qituvchilarining didaktik-pedagogik bilimlarini boyitish, ularni qayta tayyorlash va malakasini oshirishda keng foydalaniladi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi va asoslanganligi: Tadqiq etilayotgan muammoga ilmiy-pedagogik yondashuv, uning maqsadi, vazifa va amaliy farazlariga mos keluvchi metodlar majmuasidan foydalanish, tajriba-sinov maydonlari boshlang'ich sinf o'quvchilarining iqtisodiy bilimdonlik darajasi o'z ifodasini topgan sinov natijalari hamda mavzu yuzasidan chop etilgan ilmiy ishlar mazmuniga ko'ra tasdiqlanadi.

Tadqiqot bosqichlari:

1-bosqichda muammoning nazariy-amaliy asoslari, mavjud holati hamda bu sohadagi tarixiy tajribalar o'rghanildi. Ta'kidlovchi tajriba-sinov ishlari o'tkazildi.

2-bosqichda boshlang'ich sinf o'quvchilarining iqtisodiy bilimdonligini texnologiyalar asosida rivojlantirishning didaktik asoslari aniqlandi hamda yakunlovchi tajriba-sinov ishlari olib borilib, ularning natijalari umumlashtirildi va statistik tahlil qilindi.

Himoyaga olib chiqiladigan holatlar:

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining iqtisodiy bilimlarini rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo ekanligi.

2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining iqtisodiy bilimdonligini rivojlantirishning mavjud holati.

3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining iqtisodiy bilimdonligini rivojlantirishga oid tarixiy tajribalar hamda ulardan foydalanish yuzasidan ilmiy-metodik tavsiyalar.

4. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining iqtisodiy bilimdonligini rivojlantirishning didaktik asoslari.

5. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining iqtisodiy bilimdonligini rivojlantirishga yo'naltirilgan modulli texnologiyalar va ularning samaradorlik darajasi.

Tadqiqotning tarkibiy tuzilishi: Kirish, 2ta bob, 4 ta paragraf, xulosa, foydalaniman adabiyotlar ro'yxatidan iborat

I bob. BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIGA IQTISODIY TA'LIM BERISHNING NAZARIY ASOSLARI.

1.1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarning iqtisodiy bilimdonligini rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida

Bugungi kunda jamiyat a'zolari oldiga qo'yilgan ulkan maqsadlarga erishish uchun davr talablariga javob bera oladigan, zukko, ma'rifatli, insonparvar, mustaqil fikrlaydigan, izlanuvchan, tadbirkor, yangilikka intiluvchi, millati bilan faxrlanadigan va kelajakka ishonadigan yoshlarni ta'lim jarayonida shakllantirish zaruriyati vujudga keldi. Bu zaruriyat, o'z navbatida, shaxs jamiyat hayotida ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni anglashi, chuqur idrok qilishi lozimligini talab qilmoqda. Chunki, yosh avlodning ma'naviy qiyofasini jamiyat hayoti, unda ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy voqeliklar belgilaydi.

Barkamol avlodning iqtisodiy bilimdonligini rivojlantirish shundaki, ular jamiyat hayotida ro'y berayotgan voqelikni birdaniga ilg'ab olishga qiynaladilar. qolaversa, ularning yosh xususiyatlari va taraqqiyot darajalari bunga monelik qiladi. Agar jamiyat hayotidagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni ta'lim jarayoni o'zida aks ettirmasa, o'quvchi rivojlanishda davr talablaridan orqada qoladi. Chunonchi, biz har kuni duch keladigan iqtisodiy tushunchalar darsliklarda o'z ifodasini topmasa, o'qituvchi dars jarayonida ularning ma'nosini izohlamasa, o'quvchilar ularning mazmun-mohiyatini anglab etolmaydilar.

Bugungi ta'lim jarayonining asosiy maqsadi o'quvchining kelgusida mikrosotsiumda munosib o'rinni topishga tayyorlashdan iboratdir.

Ma'lumki, iqtisodiy munosabatlar insoniyat jamiyatida odamlarning ishlab chiqarishh va iste'mol ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda vujudga keladi. Inson va jamiyat hayoti bilan bog'liq tarzda vujudga kelgan iqtisodning o'zi esa uning shaxs sifatida rivojlanishiga va shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan va ko'rsatadi.

Barkamol avlodning iqtisodiy bilimdonligini rivojlantirish jamiyatda tobora rivojlanayotgan bozor ihtisodiyoti munosabatlariga asoslangan holda amalga oshirilishi maqsadga muvofiqli. Iqtisodiy ta'lim tushunchasi O'zbekiston Respublikasi umumiyligi o'rta ta'lim maktablarida amalga oshiriladigan ta'lim

mazmuni tarkibiga mustaqillik yillarda kiritilgan bo'lib, bu atama pedagogika fani uchun ham yangidir. Bu sohada amalga oshirilayotgan tadqiqotlar nihoyatda dolzARB bo'lib, u birinchi navbatda, ta'lIM amaliyotini rivojlantirishga qaratilgandir. Jumladan, o'quv dasturlari va darsliklarni iqtisodiy tushunchalar, o'quvchilarining iqtisodiy bilimdonligini rivojlantirishga yo'naltirilgan mashq va topshiriqlar bilan boyitishga xizmat qilishim lozim.

Bozor iqtisodiyoti munosabatlari rivojlanayotgan bir sharoitda o'quvchilarining iqtisodiy bilimdonligini rivojlantirishga e'tibor berish nihoyatda muhimdir. Sobiq Ittifoq tuzumi yillarda bu masala pedagog olimlar dastur hamda darslik mualliflari, o'qituvchilar e'tiboridan bir qadar chetda qolib keldi. O'sha davrda o'quvchining iqtisodiy bilimdonligini rivojlantirishga ehtiyoj yo'q deb hisoblanar edi. Iqtisodiy bilimlar, iqtisodiy munosabatlar asosan oliv o'quv yurtlarida o'rgatilishi ko'zda tutilgan edi. Bugungi kunda o'quvchilariga taqdim etiladigan iqtisodiy bilimlar mazmuni aniqlash, ularni o'rgatish yo'llarini ishlab chiqish pedagogika fanining dolzARB masalalaridan biridir.

"Iqtisodiy ta'lIM - ijodkor shaxsning shakllanishiga ta'sir etuvchi iqtisodiy bilimlar, ko'nikma, malakalar yig'indisi uzlucksiz, izchil maqsadga ko'ra shaxsning ehtiyoj imkoniyatlarini hisobga olib, turli uslub, aniq dasturlar, metodikalar bilan etkazish jarayoni"- deya ta'rif beriladi o'quvchi ma'naviyatini shakllantirish risolada.

Inson tabiat va jamiyat, undagi shaxslararo muloqot muhitidan tashqarida yashay olmaydi. Shunday ekan, jamiyatdagi iqtisodiy munosabatlarni anglab etish ham uning birinchi darajali ehtiyojidir. U mehnati bilan tabiatdagi barcha narsalarni (er, suv, o'simlik, foydali qazilmalar va boshqalar) o'z ehtiyojini qondirish uchun o'zlashtiradi. Inson o'zini o'rab turgan narsalarning bir-biridan farqi nimada, ular qaerdan keladi, va qaerga ketadi degan savolga javobni o'zi paydo bo'lgandan beri izlaydi. Iqtisodiy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lmasdan esa, bu savollarga javob topish juda qiyin. O'z hayotiy ehtiyojlarini qondirish maqsadida insonlar faqatgina atrof-muhit bilan emas, balki o'zaro muloqotga kirishadilar. Iqtisodiy munosabatlarga kirishish shaxslararo muntazamlik kasb

etadi. Bu munosabatlar o’z tarkibiga qanday muloqot ko’rinishlarini qamrab olishini har doim ham to’la idrok eta olmaymiz.

Iqtisodiy munosabatlar bu insonlar orasida ishlab chiqarish, taqsimot, ayirboshlash, pul va boyliklarga erishish sohasida vujudga keladigan aloqalardir. Kezi kelganda shuni ham ta’kidlab o’tish kerakki, ishbilarmon, tadbirkor inson uchun faqatgina halol, rostguy, odamlar bilan tez muloqot qila oladigan xususiyatlarning o’zигина etarli emas. U bunday xususiyatlardan tashqari yana iqtisodiy bilimlarga ham ega bo’lishi kerak. Masalan, Marx-navo nima? U nima uchun va qanday o’zgaradi? Tadbirkorlikda qanday qilib o’z ishini boshlash va inqirozga uchramaslik mumkin? degan savollarning javobini topish uchun iqtisodiy bilim va ko’nikmalarga ega bo’lish kerak.

Iqtisodiyot fani kishilik jamiyatini o’rganishda insonning bir vaqtda ham ishlab chiqaruvchi, ham iqtisodiy boyliklarning iste’molchisi ekanligiga asoslanadi. Inson nafaqat moddiy boyliklarning yaratuvchisi va iste’molchisi, balki u ushbu jarayonda yangidan-yangi texnika va texnologiyalarni ishga soluvchi, ulardan foydalanish usullarini aniqlovchi va belgilovchi yuqori intellektual shaxs hamdir. Yangi ishlab chiqarish vositalari inson mehnatining mahsuli bo’lib, o’z navbatida mehnatning shakli va mohiyatini o’zgartiradi, ularga kasbiy-malakaviy sifat bag’ishlaydi.

O’quvchilarga bozor iqtisodiyoti tushunchasi haqida dastlabki ma’lumotlarni berishda, albatta moddiy boylik halol mehnat orqali shakllanishini ular ongiga singdirish kerak.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda aholining turli guruh va tabaqalari bozor iqtisodiyoti talablari va qonun-qoidalarini birdaniga anglab eta olmaydilar. Bunday sharoitda o’z xarakati, bilimi bilan muvaffaqiyatga erishgan ishbilarmon, tadbirkorlar faoliyatiga turlicha baho va munosabat yuzaga kelishi tabiiydir.

Ma’lumki, mustaqil O’zbekiston Respublikasida bozor iqtisodiyoti munosabatlari tobora rivojlanib bormoqda. Uning dunyo miqyosidagi mavqeい va obro’-e’tibori oshib borayotgan bir paytda, yosh avlodga chuqur iqtisodiy bilim

berish, uning iqtisodiy bilimdonligini oshirish, iqtisodiy madaniyatni va tafakkurini shakllantirish o'ta dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Bozor iqtisodiyoti munosabatlari tobora rivojlanayotgan bir sharoitda jamiyat hayotida sodir bo'layotgan iqtisodiy munosabatlarni anglab etish o'quvchilarning kelajakda mustaqil hayotga tayyor bo'lishlari uchun nihoyatda muhimdir. Oilada, mакtabda o'quvchilar bozor iqtisodiyoti munosabatlariga kirishishning ma'naviy-axloqiy me'yorlarini singdirishda milliy va diniy qadriyatlar muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Ana shu qadriyatlardan bugungi kunda maktablarda o'quvchilarga iqtisodiy bilimlarni o'rgatish jarayonida unumli foydalinish samarali natijalar beradi.

Bozor iqtisodiyoti munosabatlariga kirishishning muhim vazifalaridan biri jamiyatning barcha a'zolarini amaliy hisob-kitobga va oqilona tadbirkorlikka o'rgatishdan iborat. O'quvchilarning iqtisodiy bilimdonligini rivojlantirishning bosh maqsadi o'quvchilarda iqtisodiy bilimdonlik, iqtisodiy ong, iqtisodiy madaniyatni tarkib toptirishdan iboratdir. Shuning uchun ham o'quvchilarning iqtisodiy bilimdonligini rivojlantirish sohasidagi pedagogik chora-tadbirlarni boshlang'ich ta'limning dastlabki kunlaridanoq boshlash maqsadga muvofiqdir.

Rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy bilim asoslari fan sifatida maktablarda o'qilib, yaxshi natijalarga erishilgani bizga manbalar orqali ma'lum. Chunonchi Amerika Qo'shma Shtatlarida o'quvchilarga iqtisodiy bilim berish bo'yicha "Junior Achievent" ("Yoshlarning yutuqlari") nomli dasturi mavjud bo'lib, bu dastur 100000 dan ortiq tadbirkor firmalar, birlashmalar va xususiy shaxslar tomonidan mablag' bilan ta'minlanadi.

Bundan tashqari Rossiyada M.M.Vinokurova va Z.I.Dobrinina, A.Maksimov, L.Usova, A.S.Nisimchuk, B.A.Rayzberg, I.B.Soloveva, A.T.Stepanina, I.A.Sasova, I.I.Nagumanova va E.N.Zemlyanskayalarning o'quvchilarga iqtisodiy ta'lim berish bo'yicha o'quv hamda o'qituvchilar uchun metodik qo'llanmalar chop etilgan.

O'zbekiston Respublikasida ham mustaqillik sharofati bilan umumiyl o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarga iqtisodiy ta'lim berish borasida ancha ishlar olib

borilmoqda. Hozirga qadar ko'pgina o'quv qo'llanmalari va adabiyotlar yaratilmoqda.

Ingliz tilidagi "Amaliy iqtisodiyot" o'quv qo'llanmasi va mashqlar to'plami turli tillarga, jumladan, o'zbek tiliga tarjima qilinib, keng foydalanilmoqda.

"Kichik tadbirkorlik bilan shug'ullanadiganlar uchun o'quv qo'llanma"si YuNESKO tomonidan chop etilgan. Shuningdek, V.G.Matveev, U.Parpiev, I.Salomov, E.Sariqov, M.Mamatov, B.Haydarov, A.Suvonqulov, N.To'xliev, K.Xaqberdiev, A.O'lmasovlarning o'quv qo'llanma va metodik tavsiyalari shular jumlasidandir. Bu ishlarning barchasi o'quvchilariga iqtisodiy bilim berishni nazarda tutadi. Shuning uchun ham o'quvchilarga iqtisodiy bilim berish ancha sustkashlik bilan amalga oshirilmoqda.

Boshlang'ich iqtisodiy ta'lim jarayonida o'quvchi ilk bor kundalik iqtisodga oid atamallarni o'rghanadi. O'quvchi iqtisodga oid bilimlarning inson hayoti uchun nihoyatda zarurligi, u barcha sohalarni o'rghanish uchun muhimligini his etishi lozim. O'quvchilar kundalik muloqotda iqtisodiy atamalardan foydalansalar sekin-asta bu atamalar ular ongiga singib boradi.

Masalan, bozor, narx, ayirboshlash, tovar, mehnat turlari, xom-ashyo, pul, valyuta, birja, kim oshdi savdosi, do'kon, sotuvchi, xaridor, ishbilarmon, barter, mulk va boshqalar. Bozor iqtisodiyoti sharoitida bu tushuncha va iboralar kundalik muomala vositasiga aylanishi tabiiy. Bu esa, keyinchalik o'quvchilarga iqtisodiy hodisalarни tushunishga, jamiyatda o'z o'mini topishga hamda kelajakda muvaffaqiyatga olib boradigan yo'lni tanlashga yordam beradi.

Barkamol avlodning iqtisodiy bilimdonligini rivojlantirishning nazariy-amaliy asoslarini yaratish yo'lida bir qator harakatlar amalga oshirildi. M.Abdalimov, B.Karimov va Sh.Shomansurovlarning uslubiy-amaliy qo'llanmasi, Z.Valieva va Yo.Muhibovlarning o'quv qo'llanmasi hamda B.Karimov, Z.Shokirova, I.Uzoqov, B.Toshmurodov va A.Suvonqulovlarning matbuotda nashr etilgan maqolalari fikrimiz dalilidir.

Bundan tashqari A.Vahobov, O.Gimranova, T.Jo'raev, A.Lyubechanskiy, M.Mirzaahmedov, M.Tojiev, G.Niyozov, N.Mansurova, A.Rashidov, I.Ryabova,

S.Turlanova, N.Xamedova, T.Xasanov, A.Haydarov, X.Xudoyqulov, A.G'offorov, D.Yusupxo'jaeva, B.Yunusbaev, I.Hikmatovlarning o'quvchilarga iqtisodiy ta'lif berishga oid mulohazalari matbuotda, S.Musaeva, A.Hasanov va S.Mirzaxo'jaevlarning esa tejamkorlik ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha qo'llanmalari chop etilgan.

Iqtisodiy bilimlarni singdirish, xususan, tejamkorlik tarbiyasi dastlab oiladan boshlanadi. Misqollar, vaqtlar va daqiqalar hisobini qilishni bilmaydigan yoki istamaydigan kishini xo'jasizlik illatini yuqtirgan kishi, deyish mumkin.

Hayot va ishlab chiqarishda bo'lganidek, mehnat ta'limi darslarida ham tejamkorlik masalasi o'qituvchining diqqat markazida bo'lishi kerak. Chunki bolalarning kelajakda qanday kishilar bo'lib voyaga etishi, asosan, boshlang'ich sinflarda beriladigan ta'lim-tarbiyaga bog'liq. O'quvchilarida tejamkorlik sifatlarining shakllanishida markaziy o'rinni egallasa-da, bunda ota-onalarning o'g'il-qizlarida tejamkorlikka moddiy va ma'naviy jihatdan yordamlarini unutmaslik kerak.

Barkamol avlodning iqtisodiy bilimdonligini rivojlantirish muammosi maxsus dissertatsion tadqiqot ob'ekti bo'limganligi, shuningdek, ushbu masala o'z tadqiqini kutayotgan dolzarb pedagogik muammo ekanligini yuqoridagi ilmiy tadqiqot ishlarining tahlili yana bir marta tasdiqladi. Barkamol avlodning iqtisodiy bilimdonligini rivojlantirishda ularga taqdim etiladigan iqtisodiy bilimmlarning mazmuni, ularni singdirish texnologiyalari, shakl va vositalarini aniqlash muhim ahasmiyatga ega. Biz dissertatsiya ishimizxning navbatdagi sahifalarida barkamol avlodning iqtisodiy bilimdonligini rivojlantirish ning mavjud ahvoli to'g'risida batafsil to'xtalamiz.

1.2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarga iqtisodiy ta'lif-tarbiya berish sohasidagi tarixiy tajribalar.

Ma'lumki, o'zbek xalqi azal-azaldan tijorat bilan shug'ullanib kelgan, butun olamga o'zining donoligi, tadbirkorligi, mehnatsevarligi bilan nom chiqargan. Qadimdan ota-bobolarimiz farzandlariga «halol» va «xarom», «savob» va «gunoh» kabi tushunchalarni farqlashni o'rgatganlar, ularni tejamkorlik, isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslik, mehnatsevar, rostgo'y, sabr-qanoatli bo'lish ruhida tarbiyalaganlar.

Ajdodlarimiz jamiyat hayotining asosini tashkil qilgan iqtisodiyot va tijoratga oid boy bilim, tajriba to'plashga erishganlar. Ko'plab ilmiy va badiiy manbalar, Sharq, shu jumladan o'zbek xalqining hayoti, turmush tarzi haqida ma'lumotlar beruvchi tarixiy, falsafiy adabiyotlar bunga misol bo'la oladi.

Halollik, poklik, haromdan hazar, birovning haqiga xiyonat qilmaslik - odamiylik, odoblilik gavhari bo'lib, odamni inson sifatida yuksak darajada e'zozlaydi, ulug'laydi. Shuning uchun ham Sharq xalqlari adabiyoti, falsafasi, tarixi va madaniyati, shuningdek Islom ta'liloti, ularning asosini tashkil etgan Qur'oni karim va Hadisi shariflarda har bir kishiga halol yo'l, peshona teri bilan mehnat qilib mol topish, pokiza hayot kechirishlik qayta-qayta uqtiriladi.

Avlod-ajdodlarimiz o'zlarining bir necha ming yillik hayot tajribalari va tarixiy kuzatishlaridan kelib chiqib, o'g'rilik, bosqinchilik, qalloblik, tovlamachilik, firibgarlik, ko'zbo'yamachilik, xiyonatkorlik, poraxo'rlik va boshqa noplari yo'llar bilan boylik orttirishni keskin qoralaganlar. Shariaat qoidalariga ko'ra, birovning puli erga tushib qolgan yoki sotuvchi xaridordan bilmasdan ortiqcha pul olgan bo'lsa, buni egasiga qaytarishi kerakdir.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov «Vatan sajdahoh kabi muqaddasdir» asarida buyuk ajdodlarimizning tarixiy-iqtisodiy ta'lifotlarini tadqiq etish, ularni bugungi iqtisodiy islohotlarga xizmat qildirish, yosh avlodning iqtisodiy bilimdonligini allomalarimizning iqtisodga oid bilimlari bilan singdirish asosida tarbiyalash har qachongidan ham dolzarbroq bo'lib

qolganligi haqida quyidagilarni ta'kidlab o'tgan. Qadimda ajdodlarimiz komil inson haqida butun bir axloqiy talablar majmuasini, zamonaviy tilda aytsak, sharqona axloq Kodeksini ishlab chiqqanlar. Kishi qalbida xaromdan xazar, nopoliklikka, adolatsizlikka nisbatan murosasiz isyon bo'lishi kerak. Shunday odamgina lafzini saqlaydi, birovning haqiga xiyonat qilmaydi, sadoqatli bo'ladi. Vatani, xalqi uchun jonini fido etishga ham o'zini ayamaydi.

Ma'lumki, azaldan ota-onalar bolalarini xo'jalik ishlari bilan tanishtirib, ularda oilaning moddiy ahvoli haqida tasavvur hosil bo'lishga e'tibor berganlar. Shuningdek, o'zbek oilalarida bolalarga ro'zg'or buyumlarini ehtiyyotlab, asrab-avaylash lozimligi uqtirib kelingan. Qadimda ota-bobolarimiz bolalarni tejamkorlik ruhida tarbiyalab va ana shu tuyg'uni ular ongiga singdirib borganlar.

Otalar o'g'llariga savdo-sotiq, uy- ro'zg'or ishlarini, onalar esa qizlariga uy tutish, oziq-ovqatni saqlash, tayyorlashni o'rgatishlari qadimiy urf-odatlarimizdan hisoblanadi.

Musulmonchilikda «halol» va «harom», «savob» va «gunoh» kabi tushunchalarni farqlash muhim ahamiyat kasb etgan. Ota-bobolarimiz musulmonchilik qoidalari deganda islom dinining asosi bo'lgan sha'riy hukmlarni tushunganlar. O'zbek oilalarida shariat qonun-qoidalariiga amal qilish bolalar tarbiyasiga ijobiy ravishda ta'sir qilib kelgan. Sharqona axloq qoidalari va islom ta'limotiga amal qilib kelgan bunday tarbiya usulidan ota-onalar ham bolalar tarbiyasida samarali foydalanganlar.

Qadriyatlarimiga ko'ra, nonni halollab egan, haromga yo'lamagan, birovning haqidan xazar qilgan, savdo paytida tarozidan ham, o'lchovdan ham urib qolmagan, buni xatto hayoliga ham keltirmagan diyonatli tijoratchilarni jamiki odamzod boshiga ko'targan.

Bozor iqtisodiyoti munosabatlariiga o'tish odamlarda iymon-e'tiqod, vijdon, halollik, birovning haqini eyishdan qo'rqish, xayr-ehson singari fazilatlar bo'lishini taqozo etadi. Bu haqida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov quyidagilarni ta'kidlagan: «Ma'naviyat tarbiyaning eng ta'sirchan quroli ekan, undan oqilona foydalanish, bolalarimizni vatanparvarlik, rostgo'ylik, haqsevarlikka

o'rgatish kerak bo'ladi. Aslini olganda, axloq-ma'naviyatning o'zagi. Inson axloqi shunchaki salom-alik, xushmuomaladangina iborat emas. Axloq -bu avvalo insof va adolat tuyg'usi, iymon, halollik degani».

Bugungi kunda istiqlol sharofati tufayli yoshlarda milliy, ma'naviy qadriyatlar, qadimiy urf-odatlar, tilimiz, tariximiz, o'tmish me'rosimizga e'tiqodni tarbiyalash uchun eng qulay muhit, shart-sharoit yaratildi.

Donishmandlarning har bir so'zi, ta'sirchan, serma'no asarlari odamlarning qalbi va ongi, his-tuyg'ulariga ta'sir etib, hayotimizdagi kamchiliklar, nuqsonlarni bartaraf etish, rivojlanayotgan shaxs dunyoqarashi, uning ma'naviy, iqtisodiy hamda estetik bilimdonligini shakllantirishga ko'maklashadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ilm-fanning barcha sohalarida buyuk ajdodlarimiz qoldirgan mo''tabar ma'naviy ne'matlar va ilmiy qadriyatlarni tadqiq qilib, o'zbek xalqining bugungi avlodiga etkazib berishga da'vat etib kelmoqda. Jumladan: «Mubolag'asiz aytish mumkinki, fanimiz, aql-zakovat salohiyatimizning noyob va go'zal binosiga bundan ko'p asrlar muqaddam poydevor solingan edi. Mamlakatimiz fani juda qadim zamondan yuksala boshlanganini, uning chuqur va qudratli ildizlari borligini faxrlanib ayta olamiz. U asrlar davomida o'zbek millatiga, butun insoniyatga tabiat sirlarini o'rganishda, tibbiyot, falsafa, xuquqshunoslik, ilohiyot, adabiyotshunoslik va tilshunoslikda ishonchli xizmat qilib kelmoqda.

Uzoq o'tmishdayoq o'zbek xalqining ilg'or mutafakkirlari olib borgan tadqiqotlar, ularning amalga oshirgan kashfiyotlari jahon umuminsoniyat fani va madaniyatining oltin xazinasini tashkil etadi. Bilimlar xazinasini ochgan buyuk ajdodlarimizning nomlari butun dunyoga mashhur.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin ta'lim-tarbiya sohasida milliy axloq-odobni qayta tiklash, urf-odatlar, turli tuman an'analarni joy-joyiga qo'yish, qadriyatlarni yanada rivojlanirish borasida juda keskin va buyuk burilishlar bo'lgani barchaga ayondir. Shunga ko'ra, yosh avlodni milliy qadriyatlar, o'zlikni anglaydigan, buyuk tariximiz bilan xaqli ravishda faxrlana oladigan ruhda

tarbiyalash, ajdodlarimiz merosi aks ettirilgan, mustaqillik ruhi singdirilgan darslik va qo'llanmalar yaratilmog'i zarur.

A.Abdullaev, A.Islomov, E.Egamovlar, Q.Yo'ldoshev va Q.Muftaydinovlar iqtisodiy ta'limotlar tarixini o'rganuvchi talabalarga mo'ljallangan qo'llanmalarida payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomning Hadisi shariflari, bobokolonlarimizning iqtisodiyot bilan bog'liq qarashlarini iqtisod nazariyasi fani va davlatimizning iqtisodiy siyosatiga bog'lab sharhlashga uringanlar.

O'quvchilarining iqtisodiy bilim va tushunchalarini boyitishga yo'naltirilgan o'quv materiallari tizimini vujudga keltirishda ham o'zbek xalqining tarixiy tajribasidan samarali foydalanish katta ahamiyatga egadir. Chunki ezgulik, saxovat, ulug'vorlik, halollik, poklik singari ijobiy fazilatlar ta'lim-tarbiyada, jamiyat a'zolari o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy munosabatlarni shakllantirish va mustahkamlashda katta o'rin tutadi. Shuning uchun ham o'zbekona ma'naviyat, qadriyatlarga odob-axloq haqidagi pandu nasixatlar, o'git, maqol va matallarda qadim zamonlardan boshlab alohida e'tibor berib kelingan. Chunonchi, Imom Ismoil al Buxoriy, Ali ibn Abu Bakr Marg'iloni, Mahmud Qoshg'ariy, Kaykovus, Abu Nasr Farobi, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy va boshqa mutafakkirlar, mashhur shoir va olimlarning asarlarida bayon qilingan iqtisodga oid qarashlar bunga misol bo'la oladi.

Chunonchi, Imom Ismoil al Buxoriyning «Al-Jomi' As-Sahih» asari o'quvchilarda bozor iqtisodiyotiga o'tishning ma'naviy-axloqiy asoslarini tarkib toptirish va rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Chunki hadislarda ilgari surilgan fikrlar hozirgi iqtisodiy munosabatlarda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Hadislarda insoniy xislatlardan ezgulik, sabr-qanoat, shukronalik kabilar ulug'lansa, isrofgarchilik, ta'magirlilik, ochko'zlik, baxillik, johillik kabi illatlar qoralanadi.

Hadislarda xalq tajribasida sinalgan ezgu g'oyalar kuchaytiriladi, ular nasihat va talab shaklida xalqqa etkaziladi, xalq g'oyalariga zid odatlar esa majoziy jihatdan bo'rttiriladi, yomon oqibatlardan ogoh etiladi. Bunday hollarda mubolag'ali usul orqali hadislarning tarbiyaviy ta'siri kuchaytiriladi.

Asardan keltirilgan quyidagi parchalar fikrimizning dalilidir:

Miqdor raziyalloxu anxu rivoyat qiladilar: «Rasululloh sallolloxu alayxi vasallom: «Hech kim o’z qo’li bilan topgan rizqdan ko’ra lazzatliroq taom emagan. Ollohning payg’ambari Dovud alayhissalom ham o’z qo’lllarining mehnati birlan tirikchilik qilganlar». Bu erda mehnatsevarlik, halollik ulug’lanib, insonning o’z mehnati evaziga topilgan rizqining naqadar lazzatli ekanligi ta’kidlanadi.

Umuminsoniy qadriyat darajasiga ko’tarilgan saxiylik, oliyjanoblik, ezgulik xolis niyatda amalga oshirilmog’i zarur ekanligi quyidagi hadisda ta’kidlanadi:

Jobir ibn Abdulloh raziyalloxu anxu rivoyat qiladilar: «Biror narsa sotishda yoki xarid qilishda yohud biror hukm chiqarishda oliyjanoblik ko’rsatgan odamni Olloh taolo o’z rahmatiga olur».

Navbatdagagi nasihatda ta’magirlilik, ochko’zlik bilan mol-dunyo to’plash saxiylikka zid bo’lib, u minnat evaziga, g’arazli maqsadda qilinishi, Olloh taolo nochorlarning qarzidan kechgan sahiy, fe’li keng odamlarning gunohidan o’tishi haqida quyidagilar ta’kidlanadi:

Xufayza raziyallohu anxu rivoyat qiladilar: «Janob Rasulloh sallallohu alayhi vasallam bunday deydilar: «Bir odam vaqtি-soati etib dunyodan o’tdi. Shunda unga: «Hayotlik vaqtingda qanday xayrli ish qilgansan?»- deyildi. U: «Odamlar bilan savdo-sotiq qilar edim. Shunda qarzini uzishga qurbi etadigan, (ammo vaqtinchcha uzolmay turgan) kishiga muxlat berar, nochorlarning qarzini kechib yuborar edim», - deydi. Shul bois, Olloh taolo uning gunohlaridan o’tdi»²

«Abu Xurayra raziyallohu anhu rivoyat qiladilar: «Nabiy sallalloxu alayxi vasallam bunday deydilar: «Bir tojir (savdogar) odamlarga qarz berardi. Agar nochor odamlarga qarz bersa, qo’l ostidagilarga: «Uning qarzidan o’tib qo’ya qolinglar, shoyad Olloh taolo ham bizning gunohlarimizdan o’tsa!»,- derdi. Shunga binoan uning xizmatchilari nochorlarning qarzini kechib yuborardilar. Shuning uchun Alloh taolo u dunyoda o’sha savdogarning gunohidan o’tdi».

² Сафо Очил. Мустақиллик маънавияти ва тарбия асослари (Академик И.Каримов асарлари мисолида).-Т.: Ўқитувчи, 1997,-256 б. с.27.

Agar inson o'zini yolg'on gapirish, ikki yuzlamachilik, ochko'zlikdan saqlasa, shaxs va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy takomillashuviga ijobiy ta'sir etadi.

Hadislarda birovning haqiga xiyonat qilmaslik, halollik, to'g'riso'zlik savdoda baraka keltirishi, ochko'zlik, bir-biriga g'irromlik qilish uning barakasini uchirishi haqida quyidagi fikrlar berilgan:

«Al-Ado ibn Xolid raziyallohu anhu rivoyat qiladilar: «Nabiyy salollohu alayhi vasallam: “Agar sotuvchi o'z molining aybini yashirmasa hamda oluvchi ham pul berishda g'irromlik qilmasa, (bunday) savdoda baraka bo'lur. Agar har ikkala tomon ham bir-biriga g'irromlik qilsa, bunday savdoda baraka bo'lmas!».

Demak, shunday xulosa qilish mumkinki, har ikkala tomon bir-birini aldasa, g'irromlik qilsa, bu savdo halol savdo hisoblanmaydi. Savdo-sotiq ishi halollikni yoqtiradi, shuning uchun sotuvchi ham, xaridor ham rost gapirishi shart.

Uqba ibn Omir raziyallohu anhu: «Kishi o'z molining aybini yashirgan holda savdo qilishi halol ermas», - deydilar.

Shuningdek, savdoda poklik, insof, diyonat, to'g'rilik tuyg'ulariga rioya qilish haqidagi so'zlar yuqoridagi fikrlarni to'ldiradi.

Ibn Umar raziyallohu anhu rivoyat qiladilar: «Bir odam janob Rasululloh salollohu alayhi vasallamga (har safar) savdoda aldanib qolishidan shikoyat qildi. Shunda janob Rasullulloh: Har safar savdo qilayotganingda: «Savdoda aldov yo'q» deb quy!».

Miqdom ibn Ma'dikariba raziyalloxu anhu rivoyat qiladilar: «Nabiy salollohu alayhu vasallam: «Oziq-ovqatlaringizni (to'g'ri) o'lchangizlar, (Olloh taolo) sizga baraka ato etur!».

Savdo-sotiq ishlarida amal qilinadigan shartlardan yana biri savdogarlar o'zaro bir-birlarining savdolarini buzmasliklari lozimligidir. Keyingi nasihatda birodariga xiyonat qilish, nopok narsalarga vaqt va pulini sarf etish gumroh odamlarga xos qusurlar ekanligi, ularning topgani esa halol bo'lmasligi ta'kidlanadi.

Ibn Umar raziyallohu anhu rivoyat qiladilar: «Rasululloh alayxi vasallam: «Birortangiz birodaringiz savdosiga ustiga savdo qilmangiz!».

Hadislarda savdo-sotiq ishida sudxo'rlik bilan shug'ullanish qoralanadi. Sudxo'rlikdan olingan foyda halol foyda emas va shuning uchun uning barakasi ham bo'lmaydi. G'irromlik qilish ham sudxo'rlikning bir ko'rinishi sifatida qoralanadi.

Ibn Abu Avfo: «Molning bahosini sun'iy oshiruvchi odam sudxo'r, xoin va aldamchi bo'lib, topgani halol ermas», - deydilar.

Yangi jamiyat kishisini tarbiyalashda yuqorida keltirilgan bunday fikrlar juda katta ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega. Ushbu fikrlar yosh avlodni insoniy fazilatlar bilan qurollantirishdan tashqarii ular tafakkurini iqtisodiy bilimlar bilan ham boyitib boradi. Shuning uchun bu fikrlardan odobnama, o'qish, ona tili, mehnat, matematika darslarida samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Imom Ismoil al Buxoriyning «Al-adab al mufrat» (Adab durdonalari) asarida ham o'quvchilarning iqtisodiy bilimdonligini oshirishga xizmat qiladigan uchun qimmatli fikrlar berilgan. Asarda xaridorni aldamaslik, qimmatfurush bo'lmaslikka intilish, xaridorga qattiq gapirmaslik - bular savdogarchilik odob-axloqi va madaniyatining muhim talablaridan bo'lib hisoblanishi ta'kidlanadi. Tejamkorlik, poklik, to'g'rilik, iymon-e'tiqodlilik ulug'lanadi. Asardan keltirilgan quyidagi parchalar fikrimiz dalilidir.

Abdulloh ibn Umardan rivoyat qilinadi: «Ahloqning yaxshi bo'lishi, taomning pokizaligi, rostlik va omonatga xiyonat qilmaslik - mana shu to'rt xislatni Allah taolo senga bergen bo'lsa, dunyoviy ishlardan chetda qolgan bo'lsang ham, zarari yo'qdir».

Abu al Abid ibn Mu'oviya ibn Sibra (roziyollohu anhu) aytdilar: Men Abdulloh ibn Mas'uddan isrof kunandalar degan so'zning ma'nosini so'raganimda, Abdulloh: «U molni nohaq erlarga sarflaydigan kishilardir», - dedilar.

Isrof so'zining lug'aviy ma'nosi - molni gunoh ishlarga sarflash yoki o'zi va bola-chaqasi uchun ham narsa qoldirmay, bor-yo'g'ini mayda-chuyda, ikir-chikirlarga sarflab yuborish ma'nosini anglatadi. Isrof u qaysi ko'rinishda bo'lmasin kishining bor-yo'g'inisovuradi, yakson qiladi, -degan fikr ilgari suriladi.

Keyingi hadisda quyidagilar ta'kidlanadi. Abdulloh ibn Abbosdan rivoyat qilindi: Rasululloh: «Yaxshi siyrat, chiroyli hay'at va har bir ishda iqtisodchilik etmish xislatdan bir bo'lagidir», - deydilar.

Bu o'rinda yaxshi siyrat deganda yaxshi muomala, chiroyli hay'at tashqi ko'rinishni yaxshilab yurish, iqtisod har bir xatti-harakatda me'yorni ko'zlash nazarda tutiladi.

Molni tejash va ko'paytirish, savob haqida quyidagi hadisda shunday rivoyat qilinadi.

Anas ibn Molikdan rivoyat qilindi: Rasululloh: «Birortangiz ekish uchun qo'lingizda bir ko'chatni ushlab turgan vaqtingizda qiyomat qoyim bo'lib qolsa-yu, qoim bo'lishdan ilgariroq uni ekib olishga ko'zingiz etsa, albatta ekib qo'ying», - deydilar.

Dovud ibn Abu Dovud (roziyollohu anhu) aytdilar: «Menga Abdulloh ibn Sallom (roziyollohu anhu): «Sen bir ko'chatni ekayotgan vaqtingda, dajjal chiqib qolibdi deb eshitsang ham, uni tuzatib ekishga harakat qil, chunki undan keyin ham odamlar yashaydi», - dedilar.

Keyingi hadisda hayot kechirishda tartibli bo'lish haqida quyidagilar bayon etiladi.

Kusayyir ibn Ubayd (roziyollohu anhu) aytdilar: Men hazrati Oysha huzurlariga kirdim. Shunda u zot menga: ozgina sabr et, men lungimni tikib olay, dedilar. Men u zotga agar bu voqeani chiqib odamlarga gapirsam, ular sizni albatta baxil deb hisoblashadi, dedim. Oysha «Mayli, o'zing bilasan. Eski kiyim kiymaydigan kishida yangi kiyim bo'lmaydi», - dedilar.

Abu Hurayradan rivoyat qilindi, u kishi aytdilar: Rasululloh: «Sizlarning uchta ishingiz uchun Alloh taolo rozi va uchta ishingiz uchun g'azablik bo'ladi: ... molni noo'rin erlarga sarf qilib zoe qilmog'ingizga g'azablanadi», - dedilar.

Shunday qilib, hadislar Sharq madaniyatining buyuk obidasi sifatida uzoq tarixga ega bo'lib, ular o'zining chuqr falsafiy mazmuni, kishilarning ma'naviy, iqtisodiy madaniyatini shakllantirishdagi boy tarbiyaviy imkoniyatlari hamda Sharq xalqlarining qimmatli merosi sifatida o'quvchi-yoshlarning iqtisodiy bilimdonligini

rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Shu bilan bir qatorda ushbu hadislarda o'qituvchilar ta'lim-tarbiya berish jarayonida samarali foydalanishlari maqsadga muvofiqdir.

O'zbek xalqining ma'naviy merosida, uning madaniyati xalqaro miqyos kasb etishida ulug' shoirimiz va mutafakkir Alisher Navoiyning o'rni, uning xizmatlari beqiyosdir. Alisher Navoiyning ilmiy me'rosi shu qadar boy va keng qirraliki, unda iqtisodiyot masalalariga doir ko'pgina qimmatli g'oyalar ham o'z ifodasini topgan. Mutafakkirning iqtisodga oid qarashlari uning «Mahbub ul-qulub» (Qalblar sevgilisi) asarida bayon qilingan. Bu asarda Navoiy xiyonatchi, o'z foydasini ko'zlaydigan, elga qahatchilik tilaydigan, arzon olib, qimmatga sotib, ziyon etkazadigan olib-sotarlarni la'natlaydi. U asarda odamlarni odob-axloqli, kamtar, kamsuqum, sharm-hayoli, insof-tofiqli, halol, pok, nafsi ni tiya oladigan bo'lishga da'vat etadi, odamiylikni yuksak darajada ulug'laydi.

Asarda savdo ahli nihoyatda insofu diyonatli, halol, pokiza, to'g'ri, rostgo'y bo'lmosg'i, o'zining foydasi uchun o'zgalarga ziyon etkazmasligi, omonatga xiyonat qilmasligi, ko'nglida birni yuz qilaman, bo'zni shoyiga aylantiraman degan istak bo'lmasligi, aybli va nuqsonli narsalarni sotmasligi, sotganda ham oluvchiga nuqsonini aytib qo'yishi, kasod mollarni pullamasligi lozimligi haqida quyidagi fikrlar bildirilgan:

«Savdogar yolg'iz foydani niyat qilmasligi; foyda qilaman deb, o'zini qattiq mashaqqatga qo'ymasligi, savdo qilib foyda topaman, deb dengizga kema surmasligi; dur olaman, deb nahang og'ziga qo'l solmasligi; mol va pul ko'paytiraman, deb jonsarak bo'lmasligi kerak. U xizmatkor va savdodagi go'mashtalarini o'z hashamati va obro'sining sababchisi deb bilmasligi; nafis matolarni ayab, eski chopon kiymasligi; lazzatli taomlarni ko'zi qiymay, qattiq non emasligi lozim. Uning tortgan qiyinchiliklari tirikchiligining yaxshi o'tishi uchun xizmat qilsa va topgan foydasi ko'ngil farog'ati uchun sarflansa yaxshi bo'ladi...».

Navoiy ta'magirlik va nokastlikni qoralab quyidagi satrlarni yozadi: «... Ta'magirning biror nima olishga o'chligi, xuddi eb to'ymasning ochko'zligiga o'xshaydi...».

Ta'magirlik va nokastlik shunday yomon fe'lki, bular go'yo ikki yoqimsiz egizakdir. Unisi bundan yomon- bunisi undan yomon; ikkalasi hamma yomondan yomon. Bularning biri nokas va birining iqboli past; ikkalasining mohiyati birdir».

Keyingi pand nasihatlarda A.Navoiy nafsni tiyish, takabburlik va manmanlik nodon odamlarga xosligi, o'rinsiz isrof qilish bu saxiylik emasligi hakida so'z yuritadi.

«Nafs ketiga tushgan- nafsoniyat manzilidagina to'xtaydi. Hech kim o'z ko'ngliga g'am tilamaydi va o'z nafsin qiyashni xohlamaydi».

Asarda xasislikni insondagi eng yaramas sifat deb ko'rsatilgan va undan jirkanilgan. «Baxil odam molini asrash uchun qattiq azob chekadi. Xasadchi esa o'z yaramas fe'li tufayli tinch yashay olmaydi. Unisi o'ziga o'zi bergen azobdan qiynaladi, bunisi esa o'z qilig'idan dard chekadi».

Asarda A.Navoiy taqsimot munosabatlari, ularningadolatli tashkil etilishiga e'tiborni qaratadi, xususan xizmatga yarasha haq to'lash masalasi diqqat markazda turadi. U yasovul misolida shunday deydi: «Yasovul shunday odamki, u mazlum, ezilgan kishini zolimning zulmidan qutkargay. Lekin yasovul bu xizmati uchun haligi mazlumdan ortiqcha haq olguday bo'lsa, u ham zulmkorning zulmiga kattakon sherikdir. Agar xizmatiga yarasha haq olish xayolida bo'lsa, u ota merosi va ona surʼi kabi haloldir...».

Alloma savdogarlarni insofga, diyonatga chaqiradi, ulardan faqat o'z foydasini ko'zlab ish tutmaslikni talab qiladi. A.Navoiy odamlarni hunarli bo'lish, doimo harakat bilan yashash, tadbirkorlik, tejamkorlik xislatlarini egallashga undaydi. U bu haqda shunday deydi: «Har bir ishdan foyda kutganingda, uni bajarishda qiyinchiliklar va ikkilanishlar paydo bo'lsa, mashaqqati ozroq tomonga kuch ber, qiyinchiligidan ezilmaslik chorasini ko'r... Nodon o'gitida xato bo'lishi muqarrardir; dushman nasihatida aldov bo'lishi shubhasizdir. Unisidan aldanma va bunisiga o'zingni aldatma»

Ko'rinib turibdiki, bu g'oyalarda tadbirkorlikning mazmuni, xosiyati chuqr mantiqiylik bilan bayon qilingan, ularda inson aql-zakovat bilan ish yuritishga da'vat etilgan.

Alisher Navoiy iqtisodiyotning muhim jihatni bo'lgan mulk masalasiga e'tiborni qaratdi. U mulknini to'g'ri ishlatish, isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslik kerak deydi. Ana shunday odamlar to'q va farovon yashashlari mumkinligi haqida shunday deydi: «Isrof qilish - saxiylik emas, o'rinsiz sovurishni aqli odamlar saxiylik demas. Halol molni kuydirganni - devona deydilar; yorug' joyda sham' yoqqanni aqldan begona deydilar...».

«Kishi o'z molidan qancha foydalansa o'ziniki; qancha asrasa- o'zganikidir. Zahmat bilan topganiningni o'zingdan ayama; do'stlar bilan mehnat qilib topganiningni dushmanlar uchun asrama».

Alloma o'z davrida dehqonlarning moddiy ne'matlar yaratuvchi asosiy kuchligi, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taqdiri ularga bog'liq ekanligini ko'ra bilgan va shunday yozgan: «Olamning obodligi dehqonlardan; mehnat ahli shodonligi ulardan. Dehqon har qanday ekin ekishga qilsa harakat - elga ham oziq-ovqat etkazur, ham barakat. Dehqonki, halol bilan don sochadi, haq bir donini etti yuzga etkazadi...».

A.Navoiy bola tarbiyasi va uni shaxs sifatida shakllantirishga katta ahamiyat beradi. U bolaga kichik yoshdanoq bilim, ma'lumot va tarbiya berishlikni ko'rsatib, o'g'il-qizlarni 6 yoshdan tarbiyalash, muallimga berish lozimligini aytadi. Ana shu yoshlar ilk yoshidayoq fan va hunarlarni egallab olmoqligi lozimligini ta'kidlaydi. Yoshlarga iqtisodiy ta'lim masalasi dolzarb bo'lib qolayotgan hozirgi kunlarda buyuk shoirning yuqorida g'oyalari naqadar ahamiyatli ekanligini yaqqol ko'rish mumkin. Bu g'oyalardan boshlang'ich sinflarning ona tili va o'qish darslarida foydalanan katta ahamiyatga ega.

Dunyodagi ko'pchilik xalqlar, millatlar, kattayu-kichik odamlar uchun hayot darsligi, odob-axloq, pandu nasihat yo'riqnomasi bo'lib kelayotgan kitoblardan biri IX asrning noyob tarixiy asari sanalmish Kaykovusning "Qobusnoma" asaridir. Unda ota-onani hurmatlash, bilimni oshirish, nafbsni tiyish, omonatni saqlash,

tejamkorlik va shunga o'xshash kishilarning iqtisodiy bilimdonligi, ma'naviyati, madaniyatiga taalluqli masalalar bo'yicha qimmatli fikrlar bayon etilganki, ular hozirgi davr uchun ham katta ilmiy-amaliy ahamiyatga egadir. Quyidagi nasihatlar fikrimiz dalilidir:

"Ey farzand, o'zingni mol jam qilishda g'ofil tutmagil, ammo halollik bilan mol to'plashga harakat qil. Mol uchun o'zingni xavf-xatarga qo'yma. Molni jam etganingdan keyin yaxshi saqlagil va har bir yaramas ish uchun sarf qilaverma, chunki molni saqlash yig'ishdan qiyindir ..." .

Mutafakkir bu nasihatida pul va mol-dunyoni halollik va poklik bilan to'plash, uni yomon ishlar uchun sarf qilmaslik kerakligini bayon qiladi. Mol-dunyo bebahonarsa, bugun bor, ertaga bo'lmasligi mumkin. U qanchalik shirin bo'lib ko'rinasin, baribir abadiy emas. Mol-dunyoni yiqqandan keyin, uni saqlash, kerakli joyida ishlatish, ko'paytirishni ham bilish lozimdir.

Quyidagi nasihatda esa mol yig'ishda sustkashlik qilmaslik, balki mehnat va barcha mahoratni ishga solish zarurligi, kamtar, sabr-qanoatli, mehnatsevar insonlar hech qachon xor bo'lmasligi haqida takidlanadi.

"Mol yig'ishda sustkashlik qilmagil, chunki sustkashlik baxtsizlikning shogirdidir. O'zing mehnat qil, chunki mol mehnat bilan yig'iladi, sustkashlik bilan parokanda bo'ladi. Donishmandlar deganlarki, harakat qiling, obod bo'lasizlar va ozga qanoat qiling, badavlat bo'lasiz; kamtar bo'ling, do'stingiz ko'p bo'ladi... Bor molingga qanoat qil, qanoat bitmas-tuganmas davlatdir va sen qanday ahvolda bo'lsang ham, rizq-ro'zingga etishasan. Shirin so'z yoki xalqning shafoati bilan yaxshi bir ish sening qo'lingga kirsa, uni tezda yo'qotib yubormagil, chunki molsiz odamning qadri bo'lmaydi..." .

Quyidagi fikrlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, mehnat evaziga orttirilgan barcha narsalarga tejamlilik va jonkuyarlik bilan munosabatda bo'lish, isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslik natijasida farovonlikka erishilar ekan.

"Har ishning bir sababi bordir. Ammo qashshoqlikning sababi isrofdir. Isrof faqat molni sarf qilishgina emas, ovqat, kishining qiliqlari, nutqida ham isrof bo'ladi, isrof tanni aldaydi, nafasini ranjitadi, aqlni qochiradi va tirikni o'ldiradi,

ko'rmaysanmiki, chiroqning tirikligi yog' bilandir. Agar yog'ni haddan tashqari ko'p solsang, yog' pilikning boshiga chiqib, chiroqni o'chiradi, yog' esa chiroqning yonishiga sababchi edi, isrof jihatdan o'limiga sabab bo'ldi...".

Savdodagi to'g'rilik va savdogarlik haqida quyidagi fikrlar keltirilgan:

«Savdo ikki xildir, ikkovi ham xatarlidir: biri muomala, ikkinchisi musofirlikdir. Muomala o'rtoqlar(muqimlar)ga xosdirkim, kasod mollarni foyda ta'ma bilan sotib oladilar. Bu ishda mol xatarlidirkim jasoratli va oldindan ko'rvuchi kishi kasod molni foyda umidi bilan olishi kerak.

Demak, har yul bilan savdogar o'zining moli va taniga ehtiyoj bo'lisci, beparvo bo'lmasligi kerak. Shu bilan birga, (savdogar) omonat va to'g'rilikni o'ziga odat qilishi zarur, o'zining foydasi uchun o'zgalarga ziyon etkazmasligi kerak va o'ziga tobe bo'lgan kishi bilan muomala qilgay. U shunday ulug' odam bilan muomala qilishi mumkinki, u odam diyonatli va muruvvatli bo'lgay, firibgar kishidan qochgay. Molning yaxshi va yomonini bilmagan va moli oz odam bilan muomala qilmagay. (Agar shunday odam bilan muomala) qilsa, foydadan tama qilmagay, toki ikkovining orasidagi do'stlik vayron bo'limgay» .

Keyingi nasihat esa savdo-sotiq ishida kishilarni birovning haqiga xiyonat qilmaslikka, rostgo'y hamda muruvvatli bo'lishga undaydi.

"Savdoda yolg'on so'z aytmagil, kofir va musulmon orasida savdo vaqtida yolg'on so'z aytish ko'p yomon feldir. Sotmaguncha hech molni qo'ldan bermagil va muomalada sharm qilmagilkim, donishmandlar aytibdilarki, sharmdan ko'p umid va orzular hosil bo'lmos usidir. Lekin ko'p bemuruvvat va behayo bo'lma, (bu) foyda (bermaydi). Debdilarki, savdogarchilikning asli tasarruf va muruvvatdir. Chunki bular molni omon saqlashga sabab bo'lur

Oldi-sotdida muloyim bo'lish, berilgan vadaga vafo qilish, xiyonat qilmaslik, bir marta xiyonat qilgan kishi el nazaridan qolishi haqida quyidagi nasihatda shunday maslahat beriladi:

"Ey farzand, xiyonatdan qochgilki, kimki bir marta xiyonat qilsa, unga hech kimning etiqodi qolmaydi. To'g'rilikni o'zingga kasb qilib olgilki, to'g'rilik eng yaxshi ishdir. Oldi-sotdida muloyim bo'l va kishiga vada qilmagil, vada qilsang,

unga xi洛 etmagil. Xaridorga yolg'on so'z demagil, rostini aytgil. Muomalada, birovga hujjat bergeningda yoki hujjat olganingda ehtiyot bo'l, hujjat berishni istasang, to haqingni qo'lga olmaguningcha hujjatni qo'lingdan bermagil" .

Birovning haqiga xiyonat qilgan odam oxir oqibat o'zi zarar ko'rishi haqida quyidagi hikoyatda bayon etiladi.

"Shunday eshitdimki, bir kishining qo'yi haddan tashqari ko'p edi. Uning nomusli va xiyonat qilmaydigan bir cho'poni bor edi. U har kuni qo'ylarni sog'ib, sutni qo'y egasining oldiga keltirardi. Qo'y egasi sutga yarim hissa suv qo'shib, cho'ponga sotib kelishni topshirardi. Cho'pon unga shunday nasihat qildi: "Ey xo'ja, musulmonlarga xiyonat qilmagilki, o'zingga zarar etkazasan". U kishi cho'ponning nasihatini eshitmadni va xiyonat qilaverdi. Bir kecha bahor vaqtida qo'ylarni sel oqadigan joyga qo'ydi va o'zi bir balandlikka chiqib uqlab qoldi. Ittifoqo, ko'p yomg'ir yog'di va sel oqib kelib qo'ylarni oqizib ketdi va barcha qo'ylar halok bo'ldilar. Ikkinchikun cho'pon shaharga keldi. Qo'y egasi unga dedi: "Bugun nima uchun sut keltirmading?" Cho'pon: "Ey xo'ja, men senga sutga suv qo'shmagil degan edim, mening so'zimni aslo eshitmading. O'tgan kechasi sutga qo'shgan suvlaringning hammasi yig'ilib, sel bo'lib oqdi va qo'ylarni oqizib ketdi"-deb javob berdi" .

Yana bir hikoyatda omonatga xiyonat qilmaslik haqida shunday nasihat beriladi.

"Men shunday eshitganmanki, bir kishi kechasi sahar vaqtida qorong'ida uyidan chiqib ketdi va hammomga bormoqchi bo'ldi. O'z do'stlaridan biriga: "Men bilan hamroh bo'lib hammomga borgil!"-dedi. U dedi: "Sen bilan birga boraman-u, ammo hammomga tushmayman, chunki mening bir zarur ishim bor". U kishi hamrohi bilan hammom tomonga qarab ketdi. Ikki ul ketgan joyga borib, hammomga boruvchi do'stiga bildirmasdan boshqa yo'lga kirdi. Hamrohi yolg'iz o'zi hammomga ketaverdi va do'stim bilan kelayotirman deb o'ylab boraverdi. Ittifoqo, bir o'g'ri u kishining izidan ketaverdi, u kishi buni do'stim deb fahmladi va uning qo'ynida yuz tillasi bor edi. Hammomning eshigida tillani qo'ynidan chiqarib kecha qorong'isida tanimay haligi o'g'riga berdi va dedi: "Ey birodor,

men hammomga kirib chiqquncha bu tilla senda tursin, hammomdan chiqqanimdan keyin menga topshirasan". O'g'ri tillani olib, o'sha joyda o'tirdi. U kishi hammomdan chiqib, kiyimlarini kiyib ketaverdi. O'g'ri uning orqasidan chaqirib dedi: "Ey juvonmard, kel mendan oltinlaringni ol. Bugun men sening omonatingni saqlab o'z ishimdan qoldim". U kishi dedi: "Sen kimsan, bu oltin qanday oltin?"

O'g'ri dedi:

-Men bir o'g'riman, bu oltin sening menga topshirgan oltiningdir.

U kishi dedi:

- Agar sen o'g'ri bo'lsang, nima uchun bu oltinlarni olib ketmading?

O'g'ri dedi:

-Agar ming tilla bo'lsa ham, sendan andisha qilmay olib ketardim, lekin sen bu oltinni menga omonat topshirding. Omonatga xiyonat qilmoq juvonmardlikdan emas.".

"Omonatga xiyonat qilmagilki, omonatni kimyoyi zar deganlar. Agar rostgo'y bo'lsang, hamma vaqt badavlat yashaysan, yani dunyodagi hamma boylik rostgo'y odamga tegishlidir. Birovdan aldanmaslikka harakat qil va birovni aldashdan hazar qil"-degan nasihatlar berilgan kitobda.

Halol odam qalloblik, ta'magirlilik, birovlarni qon qaqshatish asosida boylik orttirishdan nafratlanadi, xalq qarg'ishidan cho'chiydi. Kimdaki ana shu insoniy fazilat mavjud bo'lsa, uni hamisha xiyonat, bediyonat va nopoklik yo'lidan qaytish, halollik, poklik, diyonat sari odimlashiga ko'maklashadi. Bir umr baxtli, yuzi yorug' bo'lishini istagan odam har doim halol eb-ichadi, haromdan jirkanadi.

Bunday qimmatli fikrlardan boshlang'ich sinflarning o'qish, ona tili, mehnat darslarida foydalanish o'quvchilarni nafaqat iqtisodiy ta'im-tarbiya olishlari, balki ularni halol, pok, birovning haqidan xazar qiluvchi, omonatga xiyonat qilmaslikka o'rgatuvchi, rostgo'y, mehnatsevar insonlar qilib tarbiyalashda ham katta ahamiyatga egadir. Shu bilan bir qatorda ajdodlarimizning bolalarga iqtisodiy ta'lim berishga qaratilgan qimmatli fikr-mulohazalaridan o'qituvchilar ham doimiy xabardor bo'lib, o'z faoliyatlarida ulardan foydalanishlari lozim.

Bizga malumki, o'tmishda hayotning iqtisodiy asoslarini o'rganishga xizmat qiladigan bilimlar oilalarda ota-onalar tomonidan hamda maktab va madrasalarda badiiy-ilmiy, tarixiy manbalar vositasida o'rgatilgan. Bu manbalarda kundalik hayotda uchraydigan barcha katta-kichik masalalar hox u iqtisodiy, moliyaviy sohada bo'lsin, hox ijtimoiy-mamuriy, qonunshunoslik doirasida bo'lsin o'z ifodasini topgan va hayotiy asosda tushunarli qilib olib berilgan.

Chunonchi, Ali ibn Abu Bakr Marg'iloniyning "Muxtasar" (Shariat qonunlariga sharx) asari bunga misol bo'ladi. Bu asarning ahamiyati shundaki, unda islam diniga muvofiq qonun-qoidalar, shu jumladan, iqtisodiy munosabatlar ham ixcham shaklda bayon qilingan. Ushbu asarda sotuvchi va xaridor o'rtasida savdo-sotiq jarayonida yuz berishi mumkin bo'lgan muammolar aniq va tushunarli qilib echilgan.

Oluv-sotuv bir molni ikkinchi mol barobariga ikki yoki undan ortiq kishilarning rozilashib almashtirishlaridir. Almashtiruvchilarning bir tomondagisi iyjob qilsa, yani oluv-sotuv qilayotganlarning so'zni avval aytadigani "sotdim" yoki "sotdingmi?" kabi so'zlardan birini aytsa, ikkinchi tomondagisi qabul qilsa, masalan, "oldim" yo "sotdim" kabi so'zlardan birini aytsa oluv-sotuv shartnomasi tuzilgan hisoblanadi.

So'zlashib qilinadigan oluv-sotuv muomalasi haqiqiy yoki hukman o'tgan zamonga dalolat qiladigan so'zlar bo'lishi kerak. Haqiqiy o'tgan zamonga dalolat qiladigan so'zlarning misoli "sotdim", "oldim", hukman o'tgan zamonga dalolat qiladigan so'zlarning misoli "sotdingmi?", "oldingmi?" kabi so'zlardir. Ammo sotuv-oluv shartnomasi kelajak zamonga dalolat qiladigan so'zlar bilan, masalan, "sotasani?", "olasanmi?", "sotaman","olaman" kabi so'zlar bilan tuzilmas. Va yana ikki kishining bir-birlariga mollarini umuman so'zlashmay berishlari bilan sotuv-oluv shartnomasi uzil-kesil tuzilgan bo'ladi, u mollar oltin, kumushga o'xhash juda qiymatli bo'lsa ham yoki qovun-tarvuz, bodringga o'xhash oz qiymatli bo'lsa ham".

Oldi-sotdi kelishgan vaqtda so'zni qatiy qilib kesib, savdoni bitirgandan keyin molni yoqtirmaganidan yoki boshqa sababdan savdo qiluvchilarning biri

savdoni buzishni xohlasa ham buza olmagani kabi savdoni qilayotgan vaqtda uch kun yo undan kam vaqtda qaytarishga yo olishga sotuvchining yo oluvchining yoki har ikkalasining ixtiyorli bo'lishlarini shart qilish durust. Buni ixtiyori shart deyiladi...

Shuningdek, pulni uch kun ichida bermagan taqdirda savdoni qaytarishga ixtiyorni shart qilib savdo qilish ham durust. Uch kun to'lguncha pulni to'lasa, savdo sobit bo'ladi hamda uch kundan ko'p vaqtda, masalan besh kunda ham pulni to'lay olmagan taqdirda qaytarishga ixtiyorni shart qilib savdo qilganda uch kun to'lguncha to'lasa savdo durustga aylanadi. Uch kun to'lguncha molning pulini to'lay olmasa savdo buzuladi".

Savdo-sotiqlari davrida molda bazi bir kamchiliklar uchrashi mumkin. Mana shunday vaqtda xaridor va sotuvchi o'rtasida har xil muammolar vujudga keladi. Muammolarning echimiga yordam beradigan fikrlar "Muxtasar" kitobida o'z ifodasini topgan. Masalan:

Bir kishi bir narsani sotib olgach; narsada savdogarlar qoshida bahosi tushmasdan avvalgi aybini topsa ixtiyori bor: xohlasa narsani sotuvchisiga qaytaradi, xohlasa avvalda kelishgan bahosi barobariga oladi, ammo pulini avvalda kelishgandan kamaytira olmas.

Yong'oq va shunga o'xhash mag'izli narsalarni sotib olganda mag'izning yomonligi bazisini chaqib ko'rganda bilinsa qaralur: agar qolganlarining hammasi foydalanishga yaroqli bo'lsa, kamchiligiga yarasha bahosi sotuvchidan undirib olinur, ammo qolganlarining hammasi yo bazisi foydalanishga yaroqli bo'lmasa narsaning hammasini qaytarib berib, pulni qaytarib olinur.

Oluvchi narsada ayb borligini davo qilsa, o'zi narsaning haqini sotuvchiga bermagan bo'lsa, aybning yo'qligi malum bo'lguncha pulni to'lashga oluvchi majbur qilinmas".

Savdoda xaridolarning bir-biriga nisbatan hurmatda bo'lishlari kerakligi hamda kim oshdi savdosi haqida quyidagi fikrlar keltirilgan:

Bir kishi bir narsani malum bahoga olishga kelishgandan so'ng ikkinchi kishining ortiq baho berib shu narsani olishi ham makruh.

Kimoshdiga, yani narsani pulni ko'proq berganga sotish makruh emas. Arablar bunday savdoni "bayi muzoyida" ("kimoshdi savdosi") deydilar".

Bundan tashqari kitobda ijaraga berish va ijaraga olish to'g'risidagi qimmatli malumotlar ham berilgan. Asarda ijaraning iqtisodiy faoliyatni yo'lga qo'yib olish, foydalanilmay yotgan mol-mulkni har ikki tomon uchun ham o'zaro manfaatli shaklda harakatga keltirish, ijarani har ikki tomonning roziligi asosida shartnomaga bilan tasdiqlatib olish kabi bir qancha qoidalar o'z ifodasini topgan. Masalan:

Ijaraga berish va ijaraga olish-shul narsaning malum va belg'uli bo'lg'on foydasini o'zining jinsdoshi bo'limg'on narsa yo foyda barobarini ijara haqining faloncha mikdori malum muddatdan so'ng berilur, deb muddat tayin qilib sotmoqlikdir. Masalan, bir uyni bir necha yilg'a ijarag'a berganda ijara haqining necha miqdori hozir, necha miqdori keyinga, deb bayon qilur. Ammo yurtni ijarag'a berish barobarina yurtni ijarag'a berish durust emas, jinsdoshi bo'lub ribo (pora) bo'lg'onliqi uchun”.

Ijaraning mazmuni shuki, ijara haqini o'sha zamoni berilmaydi, bunda esa ijara oluvchining ahvolini engillashtirish haqida quyidagi fikrlar keltirilgan:

Ijara oluvchig'a ijara haqin o'shal zahotiyoq bermoq vojib emas.

Mulk ijaraga olingan bo'lsa-yu, undan foydalanilmasa ham ijara haqini to'lashlik shart ekanligi haqida asarning quyidagi sharhida uqtiriladi:

Bas, birov o'zi turmoqlig' uchun bir uyni, masalan, bir oyga ijarag'a olsa, garchi bu uyda xech turmasa-da bir oy o'tgach aytgan haqin to'lamoqlik vojib bo'lur.

O'quvchilarning so'z boyligini oshirishga oid mavzularni hamda ish-harakat manusini ifodalovchi so'zlarni o'rgatishda mashq matnlari sifatida bunday parchalardan foydalanish talim-tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Chunki bu matnlarni o'qish bilan o'quvchining iqtisodga oid bilimlari va tushunchalari kengayadi.

XI asrda yashab ijod qilgan O'rta Osiyo xalqlarining atoqli farzandi Mahmud Qoshg'ariyning bebaaho "Devonu lug'otit turk" asari tilshunoslik tarixi va davr madaniy hayotida alohida sahifa ochgan. Bu asar soddagina lug'at sifatida mashhur

bo'lsa-da, unda ko'pgina hikmatli so'zlar, maqollar, qo'shiqlar va adabiy parchalar ham keltirilgan. Hozirgi kunda Devon malumotlaridan o'quvchilarni iqtisodiy bilimdonligini oshirishda unumli foydalanish esa samarali natijalar beradi. Asarda keltirilgan quyidagi parchalar bunga misol bo'la oladi:

"Qozon tubim oltin deb maqtansa, cho'mich: "Unday bo'lsa, men qaydaman?"-deydi". Bu masal o'zining kimligini biladigan tanish kishilar oldida maqtanuvchi kishiga nisbatan aytildi.

Masal o'quvchilarda kamtarinlik ko'nikmalarini shakllantiradi.

Quyidagi maqol esa ovqat yoki rizq uchun ortiqcha urinish va qayg'irish kerak emasligini anglatidi.

"Molxonada buzoq tug'ilsa, ariqda o'ti chiqadi" .

"Savdogarning moli toza, beshubha bo'lsa, yo'l ustida eydi". Bu maqol aytgan so'zining uddasidan chiqa olmagan, quruq maqtanchoqlarga nisbatan qo'llaniladi.

Quyidagi matal o'quvchilarni yalqovlikni tashlash, g'ayrat bilan ishlashga undaydi. "Tirishqoqning labi yog'liq, erinchoqning boshi qonliq, chunki tirishqoq ko'p ishlab, yaxshi taomlar, go'sht, yog'lar topadi. Shu bilan u moy oshaydi. Erinchoq o'zining yalqovligi bilan ishdan qochadi, xafalikdan boshiga uradi, uni qonatadi".

Qarz oluvchi va qarz beruvchilar haqida quyidagi maqol keltirilgan. "Qarz beruvchi-arslon, qarz oluvchi-sichqon". Bu maqolda qarz beruvchi (puldor) hujum qilishga go'yo arslondir, qarzdor esa qo'rquv, vahima bosganidan sichqon kabitdir, degan o'xhatma keltiriladi.

Quyidagi maqolda qo'ni-qo'shnilarini hurmat qilish, ularga yaxshilik qilish kerakligi haqida takidlanadi: "Qo'ni- qo'shnilaringga yaxshilik qil, ularni hurmatla. (Ulardan) biror sovg'a olsang, (undan) yaxshiroq mukofot hozirla".

Biron narsaga ehtiyoj sezilganda, foydalanish uchun qo'ldagini ehtiyyot qilish kerakligi haqida ham asarda quyidagi maqol orqali uqtiriladi: "Yoqasiga to'kilgan ovqatni yalash bilan ovora bo'lgach kishi qo'lidagi kosa va shu kabi narsalardan ayriladi".

"Bo'sh narsaga ega yo'q"- degan maqol esa o'z molini puxta saqlashga undaydi .

"Quruq qoshiq og'izga yoqmas, quruq so'z qulooqqa yoqmas"-degan maqol esa birovdan yordam so'rash uchun unga ham biron foyda ko'rsatish kerak, degan manoda qo'llaniladi.

Quyidagi maqol isrofarchilikka qarshi hamda ishni boshida puxta o'ylab qilish kerakligiga undaydi. "Xitoy hoqonining ipak gazmoli ko'p, lekin o'lchamay kesilmaydi".

Asarning 403-betida keltirilgan sherda ilmli, aqli odamlarga yaxshilik qilib, so'zlarini tinglash, ularning ilmlari, hunarlarini o'rganib, amalga oshirish kerakligi maslahat beriladi.

XIX asr oxiri va XX asrning boshlarida yashab, ijod etgan mashhur o'zbek pedagogi Abdulla Avloniy ko'plab mavzularda ilmiy asarlar yozgan. Uning ilmiy kitoblari orasida eng mashhur, mazmundor va puxta sanalgan asari «Turkiy guliston yohud axloq» bo'lib, u pedagogika, bola tarbiyasiga va axloqiga bag'ishlanadi. Bola tarbiyasida muallif u yashab turgan sharoit, muhit, kishilarning o'rni katta ekanligini ko'rsatadi va bu sohada oila, maktab sharoitini ham nazar e'tiboridan chetda qoldirmaydi.

Avloniy mehnatni ulug'lab, bolalarni hunar o'rganishga chaqiradi, kishilarni biror kasb bilan shug'ullanishga undaydi.

Asarning bir bobi «Iqtisod» deb nomlanadi. Avloniyning fikricha, iqtisod, tejamkorlik, insonlar hayotining negizini tashkil etadi. Negaki, kishilar amalga oshirayotgan ishlarning rivoji, to'plangan pul yoki molni qo'ldan boy bermaslik, ularni yanada ko'paytirish uchun g'oyatda tejamkor, ishbilarmon bo'lishlari darkor.

«Iqtisod» tushunchasiga mashhur o'zbek muallimi quyidagicha ta'rif beradi: «Iqtisod deb pul va mol kabi ne'matlarning qadrini bilmakka aytilur. Mol qadrini biluvchi kishilar o'rinsiz erga bir tiyin sarf qilmas, o'rni kelganda so'mni ayamas. Sahovatning ziddi baxillik o'ldig'i kabi iqtisodning ziddi isrofdir. Alloh taolo isrof qilg'uchilarni suymas ...».

Demak, tejamkorlik o'zbek xalqining doim diqqat markazida turgan. Eyish, ichish, o'qishdan ham aynan tejamkorlik, iqtisod va unga taalluqli madaniyat muhimroq o'rinda turgan. Chunki bola o'zida tejamkorlik tuyg'usini shakllantira borib, nafaqat o'z mehnatini ham qadriga etadigan bo'lib tarbiyalanadi. Buni anglab etishdan bolada o'zi, ota-onasi va jamiyat yaratgan boyliklarning qadriga etish, ularni asrab-avaylash ko'nikma, malakasi paydo bo'la boshlaydi.

A.Avloniy bu boradagi fikrlarini davom ettirib, o'z zamonasiga xos bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatning mohiyatini aniq va ravshan ochib beradi.

«Hozirgi zamonda maqsudga etmak, o'z millatiga xizmat qilmak, xalqig'a maqbul bo'lma uchun ilm va mol lozimdir. Olamdagi hamma millatlarning hol va qudratlari mol va boyliklari ila o'lchanadur. Har erda boy millatlar og'ir kelub, pallani bosib xo'ja o'lganidan faqirlari engib kelub, qul va asir bo'lib, osilib qoladur. Mol topmakning eng barakatli yo'llari: hunarchilik, ekinchilik, chorvachilik, savdogarlikdir. Bularning har biriga ham bu zamonamizda bilim lozimdir. Bobolarimizning «bo'lsa bo'lar, bo'lmasa g'ovlab ketar» zamonlari o'tub, o'rniga «bilgan bitar, bilmagan yitar» zamoni keldi. So'zning qisqasi, hozirgi zamonga muvofiq kishi bo'lma uchun ilm va ma'rifat ila barobar iqtisod, insof, tunganmas sa'y, bitmas g'ayrat lozimdir».

Avloniyning mulohazalariga ko'ra, kishilar o'z ko'zlagan maqsadlariga etishishlari, asosiysi o'z millatiga xizmat qilishlari va xalq orasida, jamiyatda munosib o'rin topishlari uchun ilm va mol zarur hisoblanadi.

Kimning ilmi, orttirgan bilimlari, mol-mulki etarli va ko'proq bo'lsa, ana shu kishining o'z jamiyati rivojiga qo'shadigan hissasi yanada salmoqli bo'ladi. Uning bu fikrlari zamirida barcha davrlar uchun ahamiyatli bo'lgan juda katta mazmun yotadi. Chunki ota-onalarga iqtisod ilmi hamisha zarur va u bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda juda qo'l keladi.

Avloniy «Iqtisod» bobini shunday bayt bilan yakunlaydi:

“Xalq ichinda mo''tabar bir narsa yo'q davlat kabi,
Bo'lmagay davlat jahonda quvvatu sihhat kabi.
Iqtisod, insof ziynatdur vujudi odama,

Yaxshi ne'mat yo'q kishiga sa'y ila g'ayrat kibi.

A.Avloniyning «Turkiy guliston yohud axloq» asari, undagi «iqtisod» bobi yosh avlodni yangi zamon talablari asosida tarbiyalash, iqtisodiy bilimdonlikni oshirish, iqtisodiy madaniyati va tafakkurini shakllantirish uchun katta ahamiyatga ega. Asardagi ma'lumotlardan boshlang'ich sinf o'qish, odobnoma darslarida foydalanish yaxshi samaralar beradi. Shuning uchun bolalarni yoshlikdan tejamkorlik ruhida tarbiyalab borish kerak.

Tejamkorlik, halollik, rostgo'ylik, mehnatsevarlik, to'g'rilik, insofu-diyonat mavzulari xalq maqollarida ham o'z ifodasini topgan. Maqollar inson aql-zakovati, mehr-shavqati va uning buyuk yaratuvchilik qudratini o'ta ta'sirchan badiiy vositalar orqali ifodalaydi. Ular yuz yillar davomida avloddan-avlodga o'tib, xalqning tilida saqlanib kelmoqda. Xalq maqollaridan o'quvchilarning iqtisodiy bilimdonligini oshirishda foydalanish ijobiy natijalarni beradi.

II bob. BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARNI IQTISODIY TA'LIM VA TARBIYA BERISHNING MAZMUNI VA METODIKASI

2.1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining iqtisodga (tejamkorlikka) oid bilim, tushunchalarini rivojlantirish jarayonining mazmuni, usul va metodlari

Iqtisodiy tarbiya o'quvchilarda tejamkorlik mexnatsevarlik, tashabbuskorlik, ishbilarmonlik, iqtisodiy hisob-kitob va ayni shu kabilar haqida fikrlay olishni kamol toptirish. Iqtisodiy tarbiya mazmuni haqida sharq mutaffakiri Abu Nasr alFarobiy insonga yashash uchun juda ko'p narsalar keraqligini va bularni vujudga keltirish yo`lida boshqashaxslarga murojaat etish zarurligini e'tirof etadi. Bu o'rinda olim iqtisodiy aloqa zaruriyatini ko`rsatib o'tgan edi. U o'zining «Baxt-saodatga erishuv yo`lida» asarida shunday yozadi: «Inson o`z mablag'ini to`g'ri sarflashni bilishi kerak. Pul sarflashda qizg'anchiqlik qilish hasislikka olib keladi. Pullarni rejasiz ishlatish esa insonni beboshlikka yetaqlaydi. » Ko`rinib turibdiki, o'tmisht mutafakkirlari maktab va oila sharoitlarida bolalarning iqtisodiy tafakkurini kengaytirish, ularni tejamkorlikka, ishbilarmonlikka, iqtisodiy hisob-kitobga o`rgatish, hayotiy tajriba asosida amalga oshirish lozimligiga e'tibor bergenlar.

Bolaga iqtisodiy tarbiya berish oiladan boshlanadi. Bola mактабга borgach bu borada puxta bilimlar ola boshlaydi. Abu Ali Ibn Sino o`z asarlarida shu xususda alohida to`xtaladi: «Oila a'zolari kunlik oziq-ovqatlar» uchun yetarli mahsulotlarni oldindan tejamkorlik bilan sarf qiladi. Har bir kishi bug'doy, gurunch va mevalarni saqlash yo'llarini bilishi kerak. Ehtiyojga yaroqli narsalarga tejamkorlik bilan munosabatda bo`lishi lozim. Ota-onasuv uvol qilish gunohligini farzandiga yoshligidan nasixat yo`li bilan o`rgatadi. » Ibn Sino bolalarni hayotga tayyorlash uchun ularga hunar o`rgatish kerak deb ko`rsatadi: «Inson hunarni puxta o'rganishi shart. Chunki hunar unga kelajakda ro`zg'or tebratish uchun asqotadi. Oilada iqtisodiy tarbiya zamirida bolada mexnatsevarlikni shakllantirish yotadi. Bu shunday olib borilish kerakki, bola o`z mexnatining natijalarini ko`ra bilsin. Shundagina bola o`z imkoniyatlaridan to`g'ri yoki noto`g'ri

foydalananayotganini anglaydi. Hunar egallash yoshlarni mustaqilikka o`rgatadi. Bu jarayonda bola hisob-kitob qilishni ham o`rganadi, ishbilarmonlik va tashabbuskorlik xususiyatlariga ega bo`ladi. » Ota-onalar xovli va xonadonlarni tartibga solish, ovqat pishirish, Kir yuvish va kiyim kechakni yamash, ro`zg`or asboblari va uydagi jihozlarni ta'mirlash soxasida bolalar mexnatini tashkil etadilar. Bunda ota-onsa yumushlarini bolalarga ularning jis moniy, ruxiy, aqliy imkoniyatlarini hisobga olgan xolda topshirishlari kerak. Ota-onsa ishni topshirish bilan cheklanmay bola uni qanday bajarayotganligini tekshirishi, lozim bo`lsa maqlaxat berishi, ko`maklashishi bolaning ruxlanib turishi maqsadga muvofikdir. Tarbiyaning samaradorligini oshirish ko`p jixatdan oila, maktab, jamoatchilik va mexnat jamoalarining baxamjixat kuch-g`ayrat karflashlariga va o`quvchilarga nisbatan qo`yiladigan talablari bir xil bo`lishiga bog` lik.

Bugun maktab partalarida o`tirgan yoshlar ertaga shaxsiy va ijtimoiy turmush masalalarini, shuningdek, vatan mudofasi, Xalqaro munosabatlar va tabiat injiqqliklari bilan bog` liq ravishda tug` iladigan muammolarni to`g`ri xal etishga yaroqli bo`lgan qobiliyatini, jumladan tejash va tejamli bo`lish qobiliyatini xozirda boshlab astoydil shakllantirish va o`qtirish g`oyat katta ahamiyat egadir. O`zbekiston davlatining moddiy va ma`naviy o`qish borasidagi iqtisodiy qonuniyati bilan o`quvchilar tabiiy fanlar mazmunida tanishadilar. Jamiyatshunoslik darslarida bolalar Xalq farovonligi yuqori darajaga ko`tarish uchun qanday iqtisodiy vazifalar bajarilishi lozimligini o`rganadilar. Kimyo, biologiya darslarida o`qituvchilar yoshlarga mineral o`g`itning iqtisodiy ahamiyati yaqqol misollar bilan ko`rsatadilar. Fan kashfiyotlari qanday iqtisodiy foyda keltirish mumkinligi haqida baxslashadilar. Iqtisodiy tarbiyaning qator vazifalari mexnat darslarida amalga oshiriladi. Bu darslar nechog` lik qiziqarli va foydali tashkil etilsa, shunchalik iqtisodiy bilim va malaka oladilar. O`quvchilarga iqtisodiy tarbiya berish maqsadida biz keng va to`g`r i yo`naltirilgan yo`lni o`z oldimizga ko`yishimiz kerak.

Iqtisodiy geografiya darslarida iqtisodiy tarbiyaga oid mavzulani chuqqurroq tushuntirish; xozirgi kunda o`quvchilar nutqidan o`rin olayotgan atamalarni kasblarga bog` lab o`rgatish lozim. Iqtisodiy tarbiya borasida iqtisodiy geografiya darslarining ikkita yo`nalishi alohida kasb etadi. Birinchi yo`nalish dars amalga oshiriladi. Kattalar uchun bolalarga tejamkorlikni o`rgatish tarbiyaning eng muhim bosqichi hisoblanadi. Chunki maktabgacha yoshdagi bolalarda tejamkorlikning ilk tushunchalarini shakllantirish orqali, ularda atrof-muhitga ehtiyyotkorona munosabatda bo`lish, yerusti va osti boyliklari, suv hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boyligimiz ekani, ulardan oqilona foydalanish zarurligini anglash kabi ijobjiy xislatlar tarbiyalanadi.

Har bir bola suv, gaz, elektr toki va boshqa tabiiy boyliklarimizni o`z me`yorida ishlata bilishni va ulardan oqilona foydalanish zarurligini go`dakligidan o`rganishi lozim. 2015-2016 o`quv yilidan boshlab barcha boshlang`ich ta`limda “Tejamkorlik saboqlari” dasturi asosida ta`lim-tarbiya ishlarini olib borish vazifasi qo`yilgan.

Boshlang`ich sinf o`quvchilarga tejamkorlik tarbiyasini berishda bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish zarur. Tejamkorlik qoidalarini bayon qilib berishda o`yin usullaridan foydalanish tavsiya etiladi.

“Tejamkorlik saboqlari” bolalarda umumiy axloq me`yorlari talablariga javob beradigan, ularning shaxs sifatida kamol topishiga asos bo`la oladigan iqtisodiy bilim, ko`nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat. Dastur vazifalari esa quyidagilar:

- bolalarda hayotdagi ijobjiy va salbiy holatlarga nisbatan sezgirlikni shakllantirish;
- umumiy axloq ko`nikmalarini rivojlantirish, jamoat joylarida o`zini tutishni, yerosti boyliklari (suv, gaz, elektr toki)ni isrof qilmaslik, ularni qadrlashni tarbiyalab borishdan iborat.

Mazkur sohadagi ishlarning oilada olib borilishi yoki oilada davom ettirilishi ko`zlangan maqsadga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bola o`zi tug`ilgan oila muhitida, sharoitida, urf-odatlari ta`sirida ulg`ayadi. Har bir oilaning

moddiy farovonligi ko‘p jihatdan oiladagi iqtisodiy barqarorlikka va o‘z navbatida, tejamkorlikka bog‘liqdir. Oila byudjeti daromadini tahlil qilish, uni maqsadli sarflash va tejamkorlikni tashkil etish – oilaning moddiy farovonligi hisoblanadi. N. Novikovning qayd etishicha, “Bolalarning murg‘ak qalbiga hech bir narsa ibratdek kuchli ta’sir etmaydi va barcha ibratlar ichida ota-onalardan ibratidan ko‘ra chuqurroq va mustahkamroq o‘rin oladigan ibrat yo‘q”. Oilada kattalar tomonidan tejamkorlikka qat’iy amal qilish bolalar uchun ibrat vazifasini o‘taydi. Boladagi ilk tejamkorlik tushunchalari quyidagilarda aks etadi:

- kiyim-boshlarini ehtiyoj qilib kiyish va toza saqlash;
- o‘ynichoqlarini avaylab o‘ynash, o‘ynab bo‘lganidan so‘ng o‘z joyiga yig‘ishtirib qo‘yish;
- yuz-qo‘llarini yuvishda suvni isrof qilmaslikka harakat qilish;
- televizor, boshqa texnik vositalarda multfilmni ko‘rib bo‘lgach, uni o‘chirib qo‘yishni kattalardan o‘z vaqtida so‘rash kabilar.

Oilada bolani tejamkorlikga o‘rgatishda ota-onalar quyidagilarni e’tiborga olishi maqsadga muvofiq:

- uy-ro‘zg‘or ishlarini bajarishda tejamkorlikni farzandingizda shakllantirib borish;
- bobo-buvi, ota-onalar tomonidan oila davrasida tejamkorlik mavzusida suhbatlar tashkil etish;
- suv, elektr energiyasi va gazdan foydalanish va foydalanilgan bu ne’matlar uchun oila byudjetidan o‘z vaqtida pul to‘lab borish zarurligi, ortiqcha sarf qilinsa, ortiqcha sarf-harajat bo‘lishini ham tushuntirib borish kerak.

Ayrim holatlarda uyda chiroq o‘chib qolishi sabablarini bolalarga uqtirish kerakligi, barcha odamlar elektr energiyasidan tejamkorlik bilan foydalansalar, bunday holatlarga ehtiyoj qolmasligi to‘g‘risidagi tushunchalarning berib borilishi maqsadga muvofiq.

Bolalarda tejamkorlik sifatlarini shakllantirishda hikmatlar, o‘gitlar va maqollardan foydalanish maqsadga muvofiq. Masalan: “Tejog‘lik uy – bezog‘lik uy”, “Birni kessang – o‘nni ek”, “Nimani qilsang xor – unga bo‘lasan zor”.

2.2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarning iqtisodiy rivojlantirishning mavjud holati

Boshlang'ich sinf o'quvchilarni tejamkorlik ruhida tarbiyalashdagi o'rni beqiyosdir. Chunki bola deyarli har bir kunining asosiy vaqtini mакtabda o'tkazadi. U yerdagi olib boriladigan mashg'ulotlar har bir bolaning ruhiyatiga alohida ta'sir ko'rsatadi. Hozir oila byudjeti va xo'jaligini o'rgatish bo'yicha ma'lumot beramiz:

Oila byudjeti va xo'jaligi.

Bizning mavzuni o'rganishda oila byudjeti va xo'jaligi, uni rejalashtirish, ota-onas, bolalar o'rtasida ishlarning taqsimlanishi va oilaning iqtisodiy manbai xususida fikr yuritilib, o'quvchilarda oila byudjetining daromadi va harajati, oila xo'jaligini boshqarish kabi tushunchalar shakllantiriladi.

O'qituvchi mashg'ulotning tashkiliy qismidan keyin quyidagi ikki lavhani ikki o'quvchiga o'qitadi.

Iqtisod.

Pul va molni kerakli, zarur narsalarga sarflagandan keyin qolgan puldan bir qismini kelgusi kunlar uchun saqlash lozim. Shunday qilinsa, doimo iqtisod qilib borilsa, katta sarmoya hosil bo'ladi.

Iqtisod qilishga, tejashga odatlangan odamlar saodat va tinchlik bilan umr kechiradilar. To'g'ri, yaxshi yoyish, ichish, kiyish kerak, ammo «ko'rpaningga qarab oyoq uzat» naqliga amal qilinsa, boshqalarning narsalariga ta'na qilinmaydi, ko'ngil ham hotirjam bo'ladi. Qo'lida bo'lgan pulga, mulka qanoat qilmagan odamning nafsi butun dunyo moliga ham qanoat qilmaydi.

Isrof.

Isrof – o'rinsiz foydasiz ishlarga pul va mol sarflashdir. Qo'ldagi pul va molni kerakli joylarga sarflash, yaxshi idora qila olish, isrofgarchilikdan saqlanish lozim. Shuhrat qozonish uchun to'y va ziyofatlar qilib, pul sarf etishnodonlikdir. Isrof natijasida yo'qchilik, keyin har kimning mol, davlatiga ta'na va hasad qilish kelib chiqadi.

Bayt:

Sen agar isrof etishni tashlading,
Ul zamon davlat etagin ushlading.
O'quvchilarning ana shu ikki lavha xususidagi fikrlari umumlashtirilib,
davom etiladi.

Har qanday oila ma'lum bir daromad hisobiga yashaydi. Partiya va hukumatimiz oilalarning iqtisodiy quvvatini oshirishga yaqindan yordam berish maqsadida yildan yilga mehnatkashlarning oylik ish haqlarini oshiryapti, pensioner, student, yolg'iz ona ham davlat e'tiboridan chetda qolayotgani yo'q. Davlatimiz oilaga ma'naviy, iqtisodiy jihatdan yordam berar ekan, oilada kelajak yaratuvchisining xarakteri, mehnatga munosabati, axloqi, g'oyaviy-madaniy saviyasi o'sishini ko'zda tutuadi, oilalarni kundalik ro'zg'or uchun zarur narsalar, uy-joy bilan ta'minlashni, ayolning mehnatini yengillashtirishni o'z oldiga vazifa, qilib qo'yadi. Bu esa o'zbek oilasining mustahkamlanishida, byudjet va xo'jaligi rivojida muhim ahamiyat kasb etadi.

Yosh oilalar faqat bir-birlarini tushunmaslik tufayligina emas, balki iqtisodiy sharoitni yo'lga qo'ya olmay ham ajraladigan hollar uchraydi.

Shunday oilalar borki, qiyinchilik bilan topilgan pulni, osonginasovuradilar, ular oilaning iqtisodiy masalalari bilan yuzaki shug'ullanadilar. Ammo bu borada o'nlab ko'radian ko'p muammolar bor.

Oila a'zolari oyiga qancha ish haqi olishlari aniq, lekin shu pulni qaysi maqsadlarga, qanday sarflayotganlari haqida aniq hisob-kitob yo'q.

Oila byudjeti – oila a'zolarining oylik ish haqi hisobidan to'planib, daromad va harajatlar yig'indisidir. Xo'sh tabiiy va maishiy ehtijga sarflanganidan qolgan mablag'ni nimaga sarflash kerak? Turkiston sayohat uchunmi? Kitob sotib olishgami? Qimmatbaho kiyimlar uchunmi? Mashina xarid qilishgami? Buni oila a'zolari hal qilishi kerak.

Oilada bolalarni yoshligidanoq oilaning iqtisodiy masalalarni hal qilishga jalb etish birinchidan bolanining ota-onaliddagi qadrini oshiradi, bolaning o'ziga ishonchini kuchaytiradi, ikkinchidan pul sarflash madaniyatiga hisob-kitobga, tejamkorlikka o'rgatadi. Oila xo'jaligining iqtisodiy masalalari demokratik asosda,

hamma oila a'zolari ishtirokida o'tadigan oilalarda pul-mablag' sababli janjallar ro'y bermaydi, balki oila a'zolarini oila kollektiviga yanada jipslashtiradi.

Doimiy ravishda pul yetmay qolishi, ko'pgina oilalarda urush-janjalga sabab bo'ladi. ular pulni rasamadi bilan harajat qilishni bilmaydilar. Pulni hisob-kitob bilan harajat qilish haqida tarbiyalanuvchilarga bir topishmoq aytish mumkin:

«Ota o'g'liga chaqa pul berib:

O'zimizga, sigirimizga, tovuqlarimizga yegulik biror narsa xarid qil, -dedi.

O'g'li bozorga bordi, o'ylab-o'ylab bir narsa xarid qilib keldi. Bundan ota xursand bo'ldi. O'g'il nima sotib olgan edi?»

Qovun.

O'qituvchi javobini izohlab, davom qildi.

Oila byudjetini, xo'jaligini to'g'ri bosh qarish uchun yil boshida er-xotin bir yil davomida qilinadigan harajatlarni hisoblab chiqadi. Bu umumi daromadga nisbatan olinadi. Harajatlar uch qismga ajratiladi.

Har oyda takrorlanadigan joriy harajatlar: oziq-ovqat, turar joy haqi, transport, gigienaga sarflanadigan mablag'.

Aniq hisob-kitobsiz, taxminiy sarflnadigan (kitob xarid qilishga, gazeta-jurnalga) mablag'.

Uzoq muddat saqlanadigan buyumlar sotib olishga sarflanadigan mablag'.

Yillik umumi daromaddan straxovaniega, oilaning katta a'zolari sarf qiladigan ba'zi harajatlarni chiqarib tashlaymiz. Harajatni rejalashtirishni kunda bo'ladigan harajatlarning aniq miqdorini belgilashdan boshlab kerak, shunda undan daromad uzoq muddat saqlanadigan buyumlar sotib olishga harajatlanadi

Kundalik harajatlar oilaning umumi daromadiga hamda yashash usuliga qarab belgilanadi. Bunda uy-ro'zg'or ishlarini boshqaradigan ayolga ham ko'p narsa bog'liq, shunday ayollar borki, hech qachon ovqatni aynimaydi, nonni isrof qilmaydi, hammayoq saramjon-sarishta, hech shoshib qolmaydi, ro'zg'orida doim hamma narsa yetarli bo'ladi. boshqa bir ayol buning mutlaqo teskarisi. Bu esa ayolning qizligida uyida olgan tarbiyasiga ham bog'liq.

Ba'zi oilalar kayf-safoni, to'kin-sochin dasturxon atrofida mehmon kutishni, sovg'a-salom bilan mehmonga borishni boshqalarni sayohatni, yana ba'zilarni kutubxonalari uchun kitob yig'ishni sevadilar. Harajat ham shunga qarab bo'ladi.

Ayrim bolalar ota-onalarinng oylik daromadlari qancha ekanligini bilmagani uchun ba'zi qimmatbaho narcha olib berishni talab qilib turib oladi. oylik daromadni bilganda u bunday qilmasdi. Shuning uchun Makarenko bolani oila xo'jaligini yuritish ishlaridan xabardor qilib turish kerakligini uqtirgan edi.

Agar oila yaxshi ta'minlangan bo'lsa, bu haqda bolaning o'rtoqlariga maqtanishiga yo'l qo'ymaslik kerak.

Oila o'z ehtiyojlarini qiyinchilik bilan (ma'lum bir sabablarga ko'ra) qolayotgan bo'lsa, shunday qilish kerakki, bola boshqalarga hasad bilan qaramasin. Bola mehnatsiz keladigan daromaddan ko'ra, qiyinchilik bilan, mehnat bilan oila hayoti yaxshilanishidan faxrlansin.

Agar oilada pul mablag'lari to'g'ri sarflansa, bu oiladagi bola bosiq, tejamkor, pulning qadrini bilandigan bo'lib ulg'ayadi.

Shunaq oilalar borki, oylik olishi bilan bolalarga shirinliklar, o'yinchoqlar sovg'a qilinadi-yu, keyin tang holga tushib qolishadi. Bunday oilalardagi bolalar pul va buyumlarning qadriga yetmaydi, borgan sari katta talablar qo'ya boshlaydi. Ota-onsa qiyinchilik bilan bo'lsa-da bolaning xarxashasidan qutilish uchun aytgan narsasini olib beradi.

Bundan bolada boqimandalik kayfiyati, isrofgarchilik odati, xudbinlik paydo bo'ladi. u haqiqiy yurt grajdani, mehnatkashi bo'la olmaydi.

Bundan bolaga umaman sovg'a bermaslik kerak, degan ma'no chiqmaydi, sovg'a bolaga katta xursandchilik baxsh etadi va sovg'a kutadi! Puxta o'ylab qilingan sovg'aning tarbiyaviy ahamiyati katta bo'ladi.

Bolaning oila xo'jaligi ishlarida qatnashishi o'zining ortiqcha talablarini tiyishga, isrofgarchilikka qarshi kurashga o'rgatadi. Bola 8-9 yoshga yetganda harajatlarni hisobga olgan holda oldindan pul berib turish mumkin. Bola bunga o'rgangandan keyin uni muntazam ta'minlab turish zarur.

Bolaning mehnati yoki o‘qishini hech qachon pul bilan rag‘batlantirmaslik kerak.

Oila byudjeti.

Oilaning ma’lum muddat (oy, uch oy, yil) da kutadigan daromadlari va harajatlarining kitobi.

Oila byudjetining daromadi barcha oila a’zolarining ish haqi, turli mukofotlar, nafaqa, stipendiya, pensiya, shaxsiy yordamchi xo‘jaliklaridan olinadigan foyda va boshqalar yig‘indisi hisoblanadi.

Oila byudjetining sarflanishi quyidagi yo‘nalishlarda bo‘lishini o‘rgangan edik:

Uy-joy harajatlari.

Oila uchun oziq-ovqatlar, kiyim-kechalar, transport harajatlari.

Ro‘zg‘or uchun jihozlar.

Oila miqyosidagi an’anaviy tadbirlar o‘tkazish uchun sarf-harajatlari.

Oila qo‘srimcha daromad keltiruvchi xo‘jalikka qaratilgan sarf-harajatlari
(em-xashak, kunjara, silos, don va boshqalar).

Oila uchun texnikaviy jihozlar.

Sanab o‘tilgan sarf-harajatlari katta a kichik, doimiy va takrorlanuvchi bo‘lishi mumkin.

Harajat turlari.

Uy-joy avtombil, zamonaviy texnika an’anaviy tadbirlar kabilarga sarflanadigan mablag‘ katta harajatlar hisoblanadi.

Turli uy-ro‘zg‘or anjomlari (bolg‘a, tesha, supurgi, changyutgich, qozon, idish-tovoq va boshqalar), ro‘zg‘origa oid, zarur kichik jihozlar, maydal-chuydalarga sarflangan mablag‘ kichik harajatlar deb ataladi. Oziq-ovqat mahsulotlari uchun, oilaga qo‘srimcha daromad keltiruvchi xo‘jalikka yo‘naltirilgan sarflar hamda kundalik ehtiyoj uchun ajratiladigan mablag‘lar doimiy harajatlar sanaladi.

Uy-hovli soliqlari, radio, telefon, gaz, suv, elektr kabilarga, o‘quv to‘lovlar, mavsumiy kiyim-kechaklar, o‘quv qurollari va boshqalarga sarflanadigan mablag‘lar takrorlanuvchi harajatlar deb yuritiladi.

Oila byudjetini to‘liq va to‘g‘ri tushunishdan iqtisodning tub ma’nosini anglash, shuningdek «Iqtisod» qasrining sehrli kalitini topish boshlanadi. Gap shundaki, oila va uning a’zolari ehtiyoji chegaralanmagan. Masalan: hamma oila hashamatli uy-joy, zamonaviy avtotransport, texnikaviy jihozlarga, eng yaxshi kiyim-kechak, sifatli oziq-ovqat, ko‘rkam dala-hovli kabilarga ega bo‘lishni istaydi. Ammo,oila byudjeti doimo chegaralangan.

Demak, chegaralangan imkoniyatdan samarali foydalangan holda chegaralanmagan ehtiyojni qondirish muammolarini yechish iqtisodiyotni keltirib chiqaradi.

Oila byudjetini sarflash yo‘nalishlari ehtiyoj turining ahamiyatiga qarab o‘zgaradi. Masalan, oila a’zolarini avtomobil olishga bo‘lgan ehtiyoji birinchi o‘ringa qo‘yilsa, qolgan yo‘nalishlardagi sarf-harajatlar avtomobil sotib olish maqsadiga erishguncha qadar kamaytiriladi. Shuningdek, yuqoridagi yo‘nalishlarda ko‘rsatilgan katta harajatlarga bo‘lgan ehtiyoj maqsadga aylancha, qolgan yo‘nalishlari sarflanadigan mablag‘ o‘z-o‘zidan kamayadi.

Pul qadrini saqlash.

Oilada ma’lum maqsadda to‘plangan pul o‘z qadrini yo‘qotmasligi uchun u ko‘chmas mulkka, oltin va qimmatbaho buyumlarga, shuningdek qimmatbaho qog‘ozlarga aylantiriladi.

Milliy an’analalarimizga ko‘ra ota-onalarimiz o‘z farzandlarini uy-joy bilan ta’minalashga katta e’tibor bergenlari ko‘chmas mulkka bo‘lgan ehtiyoj asosiy maqsadga aylanadi.

Oilani boshqarishda byudjetni oqilona va to‘g‘ri rejalashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. Har bir oilada daromad va sarf-harajatlar doimiy hisobga olib borilsa rejalashtirish oddiylashadi. Olib boriladigan hisob-kitoblarga ko‘ra rejalash varinatlari ham o‘zgarib turadi.

Bolalarni tejamkorlik ruhida tarbiyalash va uni amalga oshirishda

topishmoq, maqol, ertaklardan foydalanish.

Bozor iqtisodiyoti oila tarbiyasida keng qo'llanib kelingan milliy qadriyat sifatidagi tajribalariga suyanishni ham taqozo etadi. Masalan, o'zbek oilalarida bolalarni tejamkorlik ruhida tarbiyalab kelganlar, isrofarchilikka yo'l qo'ymanlar.

Ma'lumki, «iqtisod» so'zining ma'nosi keng bo'lib, chuqur mazmunga ega. Ko'p urindi bu so'z xalq ichida «tejamkorlik» so'zining sinomini sifatida qo'llaniladi. Tejamkorlik haqida so'z ketganda isrofarchilikka yo'l qo'ymaslikki tushunamiz.

«Iqtisod» tushunchasiga, mashhur o'zbek muayamini Abdulla Avloniy quyidagicha ta'rif beradi: «Iqtisod deb pul va mol kabi na'matlarning qadrini bilmakka aytilar.

Mol qadrini biluvchi kishilar o'rinsiz yerga bir tiyin sarf qilmas, o'rni kelganda, so'mni ayamas. Sahovatning ziddi bahillik o'ldig'i kabi iqtisodning ziddi isrovdur. Alloh. Taolo isrof qiluvchilarni suymas».

Ota-bobolarimizning o'z farzandlarini tejamkor bo'lishga undaganlarini xalq og'zaki ijodi misolida ham ko'rishimiz mumkin. Masalan, tejamkorlik mavzui xalq maqollarida ham o'z aksini topgan. Zero, bu maqollar yuz yillar davomida avloddan-avlodga o'tib, xalqning diliда saqlanib kelgan.

Maqollar kishilarning tarixiy tajribasi sifatida ko'pgina sinovlardan o'tib shakllanadi va chuqur ma'no kasb etadi. Mana ularning ayrimlari:

«Tejagan-birga birni qo'shar, tejamagan birini ham boy berar»,
«Pul topish uchun kuch-quvvat kerak, tejash uchun-fahmu-farosat»,
«O'zingnikini bir bor tejasang, xalqnikini ming bor teja»,
«Tejamligu rasomadlik-aka-uka, to'g'riliq halollik-opa-singil»,
«Tejamkor-olqish olar, isrofgar koyishga qolar»

Avval taom, badaz kalom.

Bir to'lgan, bir sochilar

Buromad bo'lmasa, daromad bo'lmas.

Borida kuldiring-kuldiring, Yo'g'ida qarab o'tiring.

Borida tiqa-tiqa,
Yo'g'ida siqa-siqa.
Borida pora pora,
Yo'g'ida banda bechora.
Bo'lsa chiliq-chiliq,
Bo'lmasa quruqchilik.
Daryo-daryo qabul qil,
Tomchi-tomchi yubor.
Daromadga qarab buromad.
Limcha mulla dinning sho'ri, Yomon xoting-uyning.
Ko'p bo'lsa ketar, Oz bo'lsa yetar.
Ko'p bo'lsa seplab ko'r, Oz bo'lsa-eplab.
Molini quritaman degan pul qilar, Donini quritaman degan un qilar.
Molni mol topar.
Oz ye hamisha ye.
Olganda yog' degin, Berganda-dog'.
Otni ayagan ot minar, To'nni ayagan to'n kiyar.
Osh qolsa-davlat, Ish qolsa-mehnat.
Oshni ayasang, oshga, Nonni ayasang, nonga. va hokazo.

Hattoki, ota-onalarimiz tejamkorlik ruhida tarbiyalash vazifasiga farzandlarining baxtli-saodatli bo'lishning bir sharti, axloqiy tarbiyaning bir ko'rinishi sifatida qaraganlar.

Bozor iqtisodiyotining maqsadi jamiyatning barcha a'zolarini, jumladan, ota-onalarni, ularning farzandlarini amaliy hisob-kitobga va oqilona omilkorlikka o'rgatishdan iborat. Zotan, pul ham shaxsni tarbiyalaydi. Uni mensimaslik ikki tomonlama xatolarni keltirib chiqarishi mumkin. Uning bir tomoni, bolani oilaning moddiy qiyinchiliklarini bilishni istamaslik odati paydo bo'ladi va u tekinxo'rlikka o'rganadi. Ikkinchi tomoni, pulga xirs qo'yish, ochko'zlik, xudbinlik, xasislik kabi illatlarni keltirib chiqaradi.

Ma'lumki, azaldan ota-onalarimiz bolalarni xo'jalik ishlari bilan tanishtirib, oilaning kirim va chiqim ishlarini ularga o'rgatib kelishgan. Shu tarzda, bolada oilaning moddiy ahvoli xasida tasavvur hosil bo'lishiga e'tibor berilgan.

Hozirgi zamonda butun dunyoda ko'zga tashlayotgan oziq-ovqat, ichimlik suvi, foydali qazilmalar va shu kabi zaxiralarning kamayib borayotganligi, shuningdek, ahvoli sonining ortib ketayotganligi qator muammolarni keltirib chiqarayotganligi tejamkorlik, ishbilarmonlik, omilkorlik kabi qadriyatlarning umuminsoniy, umumbashariy ahamiyatini zarurligini ko'rsatib bermoqda.

Demak, tejamkorlik ishbilarmonlikni bir ko'rinishi sifatida qadriyat hisoblanib kelingan va u ma'naviy-axloqiy mazmunga egadir. Bu tushunchani bola ongiga singdirib borish ota-onaning vazifasini bo'lib, uni bajarish faqat shaxsiy ish bo'lmasdan, balki ijtimoiy ahamiyatiga molik hodisadir. Chunki, bola o'zida tejamkorlik tuyg'usini shakllantira borib, faqat o'z mehnatini va o'zgalar mehnatini qadriga yetadigan bo'ladi. Buni anglab yetish bolada o'zi, ota-onasi va jamiyat yaratgan boyliklarni qadriga yetish, ularni asrab-avaylash ko'nikmasi va malakasi paydo bo'la boshlaydi.

Ota-onalar bolalarining kelajagini o'ylab, ularni ilk yoshlardan mehnatga solib chiniqtirib boradilar. To'g'ri tarbiyaning eng ta'sirni, eng samarali usuli ham shu mehnatdir. Ota-onalar bolalarining mehnatiga hamma vaqt ham muhtoj bo'lavermaydilar, lekin bolani yoshligidan ishga o'rgatish, mehnatga ko'niktirish zimmalaridagi burch ekanligidan shunday yo'l tutadilar.

Ma'lumki, har bir oilaning o'z xo'jaligi bo'ladi va u o'z xo'jaligini sof, halol mehnati bilan quradi: bu xo'jalik daromadi oila a'zolarining qandaydir doimiy fonda olib turishlari orqasidan emas, balki ish haqining oshuvi va oila harajatlaridan orttirib, tejab qolish tufayli ko'payadi.

Bizdagi oila xo'jaligi ro'zg'or uchun kerakli bo'lgan buyumlardan, ashyo va jihozlardan iboratdir. Oila davlatmand bo'lsa, bu hol oila a'zolari yaxshi va baxtli kechirayotganini, iste'mol buyumlarini ko'proq kelayotganini, o'z ehtiyojlarini ko'proq xarid kelayotganini, o'z ehtiyojlarini ko'proq qanoatlantirayotganini bildiradi.

Har bir oila o‘z xo‘jaligini tuzatib olish yo‘li bilan turmushini yaxshilashga urinadi. Oilaning davlatmand bo‘lishi ko‘proq butun mamlakat erishgan muvaffaqiyatlarga uning iqtisodiyot va madaniyat sohasidagi yutuqlariga bog‘liq bo‘ladi. oilada bolalarni tejamkorlik ruhida tarbiyalashga qanchalik ko‘p e’tibor berilsa, ular xalqqa ham, ota-onalariga ham o‘zlariga ham shuncha ko‘p foyda yetkazadilar.

Har bir bola oilaning tenghuquqli a’zosidir. Demak, u oila xo‘jaligining ishtirokchisidir. Shu bilan birga, bolalarimizni faqat oila xo‘jaligini yuritishga qobiliyatli kishilar qilib tarbiyalabgina qolmay, shuningdek butun jamiyat xo‘jaligini ham tejab-tergan yuritadigan sadoqatli fuqarolar qilib tarbiya qilmog‘imiz lozim.

Barcha ota-onalar bunday tarbiya maqsadlari to‘g‘risida o‘zlarida ravshan tushuncha hosil qilib, bu bilan o‘z tarbiya yo‘sinlarini doimiy ishga solib va tekshirib borishlari zarur.

Ko‘pincha ota-onalar bolalarining hamma narsani muhayyo bo‘lishi, ya’ni yaxshi yeb-ichishi, yaxshi kiyinishi, katta bo‘lganda uy-joyli bo‘lishi haqida o‘ylaydilar. Bularning hammasini farzandlariga cheksiz mehribonliklaridan va ularni behad sevganliklaridan qiladilar. Bolalarini deb o‘zlarining eng zarur ehtiyojlarini qondirishni ham chetga surib qo‘yyadilar, lekin buni bola esiga ham keltirmaydi va hatto sekin-asta o‘zini hammadan ortiq, mening istagim ota-onam uchun qonun, deb o‘ylashga odatlanadi.

Bu tarbiyaning noto‘g‘ri va zararli yo‘li bo‘lib, bundan ota-onalarning o‘zлari ko‘proq zahmat chekadilar. Bizningcha, ota-onalar o‘z farzandlarini mehnatsevar va tejamkor qilib tarbiyalash uchun quyidagilarga amal qilishlari kerak.

Bola o‘z ota onasining qaerda ishlashini va nima ishlab chiqarishini, bu ishlab-chiqarishning butun jamiyat uchun qanday ahamiyati borligini bilishi kerak.

Umuman, bola ota-onasi ishlab, topib keltiradigan daromadning katta va foydali ijtimoiy mehnat evaziga olinadigan ish haqi ekanini mumkin qadar ertaroq yaxshi tushunishi lozim.

Bolani oila byudjeti bilan mumkin qadar ertaroq tanishtirish lozim. u otasi va onasining qancha maosh olishini bilishi kerak. Bola ota yoki onasining nimaga muhtoj ekanligini, bu muhtojlikning qanchalik zarurligini bilishi zarur, u oilaning boshqa a'zolari ehtiyojini yaxshiroq qondirish uchun o'zining ba'zi ehtiyojlaridan vaqtincha kechishga odatlanishi kerak. Oilaning umumiy ehtiyojiga doir masalalarini muhokama qilishga bolani ko'proq jalb qilish lozim.

Agar oilaning moddiy sharoiti juda yaxshi bo'lsa, bolaning o'z tengdoshlari oldida bunday yaxshi sharoit bilan g'ururlanish va maqtanishga odatlantirmaslik kerak. Bola oilaning boyligidan o'zgalar oldida gerdayishga hech qanday asos yo'qligini tushunish zarur.

Ota-onalar bolalarining halol, rostgo'y va sofdillikka odatlanib borishlarini diqqat bilan kuzatib borishlari kerak. Ular hech narsani boladan atayin yashirmasliklari va shu bilan birga uning ko'z o'ngida yotgan bo'lsa ham, so'roqsiz olmaslikka o'rgatishlari zarur. Havas keltiradigan har xil narsalarni atayin bolaning ko'z o'ngicha qo'yib, uni ana shu narsalarga beparvolik bilan, suhlik qilmay qarashga o'rgatish lozim.

Oilada tejamkorlik va extiyotkorlik tarbiyasini to'g'ri tashkil etib eskirib qolgan narsalarni yaxshilab ta'mir qilib, yangisini sotib olish vaqtini cho'zish va shu yo'l bilan ota-onalar yoki oilaning boshqa a'zolari topgan pulning ma'lum qismini tejab qolish bolani juda kichik yoshligidan boshlab xo'jaligini yaxshi yuritmoqchi bo'lgan kishi ro'zg'orda qaysi narsaning eskira boshlanganini avvalroq payqashi, ro'zg'or buyumlarining juda eskirib qolishiga yo'l qo'ymasligi, ularni o'z vaqtida tuzattirish, bozorda yoki do'konda tasodifan ko'rib qolgan narsasini sotib olavermay, balki haqiqatdan kerak bo'lgan narsani sotib olishi maqsadga muvofiqdir. Bolalarga ham shu odatni singdirib borish kerak.

Bola faqat o'z xonadonidagi buyumlarinigina ehtiyyot qilib qolmay, balki boshqa kishilarining buyumlarini ayniqsa, ko'pchilik foydalanadigan buyumlarni ham ehtiyyot qiladigan bo'lishi lozim.

Tejab-tergab ish ko‘rish odatlarini bolada mumkin qadar ertaroq tarbiyalamoq kerak. Odat mashq qilish bilan hosil bo‘ladi. shu yo‘l bilan bolada buyumlarni tejab-tergab turish istagini doimo rag‘batlantirib turish kerak.

Pulni tejab-tergan sarflash ayniqsa muhimdir. bunday harajatlarning ro‘yxati bolaning yoshiga va oilaning qurbiga qarab turlichcha bo‘lishi mumkin. Deylik, 10 yashar bola uchun taxminan quyidagicha ro‘yxat tuzsa bo‘ladi: daftar, kitob sotib olish, yo‘l kira, butun oila uchun non, sut, saryog‘, sovun sotib olish, uning o‘zi va ukasiga ruchka olish... bola katta bo‘lgan sari, bunday harajatlar ro‘yxati ancha ma’suliyatliroq va murakkabroq bo‘la borishi lozim.

Oilada ota-onalar o‘z farzandlarining mehnatsevar, tejamkor va ehtiyyotkor kishilar bo‘lib yetishishlarida o‘zlari namuna bo‘lishlari kerak. Bu tarbiya ishlari uchun juda muhim omillardan sanaladi.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, tejamkorlikni bola ongiga yaxshi amal bilan singdirib borish yaxshi samara beradi. Maktabgacha ta’lim muassasasi va oila hamkorligida olib borilgan ishlar ko‘zlangan maqsadga erishish garovidir.

XULOSA

Boshlang'ich ta'lism sohasi uzlusiz ta'lism tizimining asosiy bo'g'ini hisoblanib, u har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va mакtabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Mustaqillik yillarida respublikada ta'lism-tarbiya tizimi va barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlari darajasiga ko'tarildi

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev joriy yil 19 oktyabr kuni maktabgacha ta'lism tizimini tubdan takomillashtirish masalalariga bag'ishlab o'tkazilgan yig'ilishda "Qaysi sohani olmaylik, biz zamonaviy yetuk kadrlarni tarbiyalamasdan turib biron-bir o'zgarishga, farovon hayotga erisha olmaymiz. Bunday kadrlarni, millatning sog'lom genofondini tayyorlash, avvalo, maktabgacha ta'lism tizimidan boshlanadi", deb ta'kidladi.

Ushbu maqsadni amalga oshrishda Harakatlar strategiyasi dasturidan kelib chiqqan holda boshlang'ich sinflarida iqtisodiy ta'lism-tarbiya jarayonini joriy etish davr taqozasidir.

Bugungi kunda maktab tizimida o'qituvchilarining asosiy vazifalari o'qivchilarda iqtidor va qobiliyatni yanada o'stirish, ularning bilim olish istiqbolini rivojlantirishdan iborat.

Shunga ko'ra, o'qituvchi darslarda turli o'quv pedagogik dasturlardan, elektron qo'llanmalardan, pedagogik o'yinlardan foydalansa o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi to'siq yo'qoladi, bolalarning xarakteri kengroq ochiladi. Bolalarda kuzatuvchanlik, xotira diqqati kuchayadi chunki, darsda majburiy bilim berish bo'lmaydi, bilimni ixtiyoriy qabul qilish orqali ijobjiy natijaga erishadi Iqtisodiy ta'lism jarayonida bola ilk bor kundalik iqtisodga oid atamallarni o'rGANADI. Bola iqtisodga oid bilimlarning inson hayoti uchun nihoyatda zarurligi, u barcha sohalarni o'rGANISH uchun muhimligini his etishi lozim. Ular kundalik muloqotda iqtisodiy atamalardan foydalansalar asta-sekin bu atamalar bolalar ongiga singib boradi.

Ushbu bitiruv ishida boshlang'ich sinf o'quvchilarini iqtisodiy ta'lism berishning nazariy asoslari nazariy jihatlariga to'xtalib o'tgan. Boshlang'ich sinf

o'quvchilarнning iqtisodiy bilimdonligini rivojlantirishga xizmat qiladigan dasturlar, o'quv adabiyotlarining tahlili bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilarining iqtisodiy bilimini rivojlantirishga yo'naltirilgan didaktik vositalar etarli emasligini ko'rsatdi.

Xulosa qilib aytganda ajdodlarimizning bolalarga iqtisodiy ta'lim berish sohasidagi boy meroslarini tahlil qilish asosida ulardan bugungi kunda bolalarning iqtisodiy bilimdonligini rivojlantirishda ta'lim jarayonida keng foydalanish ehtiyoji mavjudligini ko'rsatdi.

Ushbu bitiruv malakaviy ishda mazkur masalalarga oydinlik kiritidi va uning nazariy jihatlarini yoritishga harakat qilindi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lif to'g'risida"gi Qonuni //Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: SHarq, 1998. –B.20-29.
2. O'zbekiston Respublikasining "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" Qonuni //Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: SHarq, 1998.
–
B.32-61.
3. O'zbekiston Respublikasining uzluksiz iqtisodiy ta'lif-tarbiya. Konsepsiysi //Ma'rifat gazetasi, 1996-yil 17-avgust.
4. Karimov I. "O'zbekiston iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlari" –T.: O'zbekiston, 1993.
5. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lida. -T.4. -T.: «O'zbekiston», 1996. -351 B.
6. Karimov I.A. Inson manfaatlari ustuvorligini ta'minlash – barcha islohot va o'zgarishlarimizning bosh maqsadidir. - «O'zbekiston ovozi» gazetasi, 2008, 9 fevral.
7. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - engilmas kuch – T.:Ma'naviyat, 2008. - 174 b.
8. Abdalimov M., Karimov B. Iqtisod alifbosi. -T.: 1997. -27 b.
9. Abdulla Avloniy Turkiy guliston yohud ahloq. -T.: 1979. -267 b.
10. Abu Rayxon Beruniy Geodeziya.Tanlangan asarlar. II jild. –T.: 1966.
11. Alisher Navoiy Maxbub ul qulub.-T., Adabiyot va san'at,1983.
12. Amir Temur o'gitlari. -T.: Navro'z, 1992. -64 b.
13. Boboqulov S. O'quvchilarda iqtisodiy savodxonlikni shakllantirish metodikasi. - T., 2005. -21 b.
15. Valieva Z. va b.q. Boshlang'ich sinflarda iqtisod alifbosi maxsus integratsiya qilingan fan jarayonida iqtisodiy bilim va ko'nikmalarini shakllantirish.-T.: XTB,
RTM, 1996
16. Valieva Z; Muhibov Yo. Iqtisod alifbosi. Boshlang'ich muktab 2-sinf uchun

- o‘quv qo‘llanma. -T.: Sharq, 1996.
17. Vahobov A. Xonodon va iqtisod // Fan va turmush j., 2000.
18. Juraev D. Tejamkorlik hasislik emas // Boshlang‘ich ta’lim jarayoni uzluksizligini ta’minalashda fanlararo aloqadorlik //Uzluksiz ta’lim j., 2007, 5-son. –B.17-22.
19. Imom Ismoil al-Buxariy. Al-Jome’i as-saxix. –T.:O’zbekiston.1991.
20. Ishmurodova G. O‘quvchilarga iqtisodiy bilimlar berishda ishchan o‘yinardan foydalanish// O‘zluksiz ta’lim j., 2007, -6-son. –B.62-66.
21. Kaykovus. Qobusnoma. –Toshkent: “O‘qituvchi”. 2006. -208 b.
22. Kamolova N.Q. O‘quvchi – yoshlarda iqtisodiy bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari. ped. fan. nom. diss. avtori.-T., 2005. –20 b.
23. Maxmud Qoshg‘ariy Devonu lug‘atit turk. 3jildlik.-T.:1960.
24. Nabiev G‘. Oilada o‘smir o‘quvchilarni iqtisodiy munosabatlarini tashkil etishga tayyorlash // Maktabgacha ta’limda yangi pedagogik va axborot texnologiyalarni tadbiq etishning dolzarb masalalari (Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari). -Qarshi, 2010. –B. 272-275.
25. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. –T., 1983. -111 b.
26. Raimova M., Qosimov J. Maktabgacha yoshdagи bolalarda boshlang‘ich iqtisodiy ko‘nikmalarni rivojlantirish //Maktabgacha ta’limda yangi pedagogik va axborot texnologiyalarni tadbiq etishning dolzarb masalalari (Respublika ilmiyamaliy konferensiya materiallari). -Qarshi, 2010. –B. 239-241.
27. Sobirova F., Toshquzieva A. Bolalar bog‘chasida ilk iqtisodiy ta’lim-tarbiya dasturi. –T., 1996.
28. Sobirov B.B. O‘quvchilarda iqtisodiy tushunchalarni shakllantirishda innovatsion usullardan foydalanishning pedagogik asoslari. -T., 2004. -13 b
29. Sobirov B. O‘quvchilarda iqtisodiy tushunchalarni shakllantirishning nazariy jihatlari // Xalq ta’limi jurnali, 2004, 2-son. –B.105-109.
30. Sobirov B. O‘quvchilarda iqtisodiy madaniyatni shakllantirishning uzluksizligini ta’mash yo‘llari. //Xalq ta’limi jurnali. 2004, 4-son.

31. Tarbiya ota-onalar va murabbiylar uchun ensiklopediya. Tuzuvchi: M.I.Amanov. -T.: O‘zbekiston. Milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, 2010. -528 b.
32. To‘raev Yu. O‘rta umumiy ta’lim maktabida iqtisodiy ta’lim mazmunini asoslash nazariyasi va amaliyoti. Ped.fan. dok. ilmiy darajasini olish bo‘yicha diss. Avtoreferati. -M., 1992.
33. Toshpo‘latova SH. Maktabgacha yoshdagi bolalar faoliyat o‘yining roli//Halqta’limi j., 2004, № 5. -B.63-66.
34. Umarova X. Iqtisodiy bilimlarni turli o‘quv fanlari tarkibida interaktiv tarzda taqdim etish //Xalq talimi j., 2008, 1-son. –B. 45-48.
35. Umarova X. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida iqtisodiy ta’lim jarayoni uzluksizligini ta’minlashda fanlararo aloqadorlik //Uzlusiz ta’lim j., 2007. 5 -son. – B.17-22.
36. Fayzullayeva G, SHodiev N. Iqtisodiy tarbiyada pedagogik asoslarning mohiyati //Iqtisodiy munosabatlarni o‘rganishda iqtisodiy atamalardan to‘g‘ri foydalanish zarurati va muommolari. –T.: G‘ulom nashri 1989, -512 b.
37. "Uchinchi ming yillik bolasi" tayanch dasturi. -T.: 1995.
38. SHodiev N., Doniev B. Maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarga kasbhunarlar haqida tushunchalarini shakllantirish //Uslubiy qo‘llanma.- Samarqand, 2014. -54 b.
39. Shodiev N., Doniev B., Fayzieva SH. Maktabgacha yoshdagi bolalarda o‘ymakorlik kasbi bo‘yicha tasavvurlarni rivojlantirish (mashg‘ulot ishlanmasi) //Ta’lim va texnologiya. (Ilmiy-uslubiy maqolalar to‘plami). -T., 2014. –B. 186-189.
40. Erkaboeva N.SH. Maktabgacha yoshdagi bolalarga iqtisodiy ta’lim-tarbiya berish yo‘llari. //Uslubiy qo‘llanma. –Farg‘ona, 2002. -47 b.
41. Erkaboeva N. Iqtisodiy tarbiyani erta boshlash kerak //Boshlang‘ich ta’lim jur. T.: 1999, 3- son.

42. Yuz bir hadis. -T.: Mehnat, 1991. -38 b.
43. Qur’oni Karim. Tarjima va izohlar. Mualifi Alouddin Mansur. –T.: CHulpon, 1992. -544 b.
44. Qushoqova G. Usmonova M. Tayyorlov guruhi bolalarini sog‘lomlashtirishda milliy o‘yinlardan foydalanish //Uzluksiz talim jur. 2007. 5-son. –B.23-29.
45. Yusuf Xos Xojib Qutadg‘u bilig.-T., Yulduzcha, 1990.
46. Xudoyqulov X. J. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiyalashda iqtisodga oid tushunchalarni shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari. -T., Fan, 2004-212 b.

Internet materiallari

1. WWW. scientologu.org. ru
2. WWW. adpima. com
3. WWW. iet. mesi. ru
4. WWW. amazon.com
5. WWW. dvgu. ru.| umu| didjezt |newknov| yar 99|
6. WWW. iet. mesi.ru